

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I BOB. BIOGRAFIK METODNING NAZARIY MUAMMOLARI VA ADABIY PORTRET	
1.1. Biografik metodning ilmiy-nazariy va metodik asoslari.....	6
1.2. Yozuvchi biografiyasining adabiy asarga ko‘chishi.....	22
II BOB. YOZUVCHI IJODINI O‘RGANISHDA BIOGRAFIK METODNING IFODALANISHI (NASR VA NAZM TIPIDAGI ASARLAR MISOLIDA)	
2.1. Biografik metodning tahlil namunalari Abdulla Qahhor ijodi misolida.....	30
2.2. Muhammad Yusuf she‘rlari orqali yozuvchi biografiyasini yaratish.....	39
III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI	
3.1. Tajriba-sinov natijalari.....	62
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.....	65
XULOSA.....	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	82

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishganimizdan buyon yurtimizda har bir sohada ko‘plab islohotlar va yangiliklar amalga oshirilmoqda. Yurtimiz uzoq yillik istibdoddan keyin yana suveren davlatga aylandi. Istiqlol bois adabiyotimiz tarixi bilan bog‘liq bir qancha masalalarni ham hal etish zaruriyati tug‘ildi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin adabiyotimizda o‘zgacha qarashlar, yangi g‘oyalar va ayri, o‘zgarishlar kirib keldi. Bugun mustaqil O‘zbekiston o‘zining yangi hayotini, qadriyatlarini, haqiqatni tiklashdan, asl tarixni bitishdan boshladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, “Tarixiy xotirasiz – kelajak yo‘q”. Adabiyotimiz tarixidagi shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodini o‘rganish ham bugungi kunning, umuman, adabiyotning dolzarb muammolaridandir.

Mustaqillik mafkurasi booshqa ijtimoiy fanlarda ham yangicha fikr, yangicha qarash, eng muhimi, haqqoniy tarixni ro‘yobga chiqarish ehtiyojini tug‘dirdi. Jumladan, adabiyotimiz “biografiya” sini qaytadan xolis tiklash yo‘lida ham ishlar boshlandi. Asrimiz boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, jadidchilik harakati, bolsheviklar tuzumining o‘rnatilishi, 30-,40-,50-yillardagi siyosiy qatag‘onlar, 74 yil hukm surgan sho‘ro siyosati adiblarimiz ijodiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan edi. Nafaqat adiblarimizga, balki shu orqali o‘sha davrdagi bizga o‘xshagan kitobxonlarga ham bu narsa bir qancha salbiy holatlarni keltirib chiqargan. Ayni chog‘da, ta’kidlash joizki, ularning ijodiy biografiasini o‘rganish sho‘rolar zamonida bir tomonlama olib borildi.

Bugun esa Fitrat, Cho‘lpon, Qodiriy, Usmon Nosir kabi qatag‘on qurboni ijodlari qayta o‘rganilmoqda. Shuningdek, sho‘ro zamonida ijod qilgan adib va shoirlarimiz biografiasini o‘rganish ham yangicha tamoyillar asosida olib borilmoqda. Bular esa o‘z navbatida yangi tadqiqot metodologiyasini talab etayotir. Shu bois ham o‘sha davr ijodkorlarining tarjimayi hollarini ilmiy asosda o‘rganish hamda ular hayoti va ijodining o‘rganilmagan qirralarini tadqiq qilib,

ijodkor biografiyasini to'ldirish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb mavzuyiga, qolaversa, hal qilinishi kerak bo'lgan muammoga aylandi.

Adabiyot tarixini, ijodkor biografiyasini qayta yozish ehtiyoji esa adabiyotshunoslikda biografik metod muammolarini o'rganib chiqish vazifasini ham dolzarb masalaga aylantirdi. Mening tadqiqotimda yozuvchi (yoki shoir) ijodini o'rganishda biografik metodning qay darajada muhim ekanligini bir nechta o'zbek adabiyotining zabardast vakillari – shoir va yozuvchilari misolida oldim. Tadqiqot ishida faqat yozuvchi ijodini biografik metodda tahlil qilibgina qolmay, shoir ijodini o'rganishda ham biografiyasi bilan birgalikda tadqiq qilishga harakat qildim. Shunda bitiruv malakaviy ishimdagi asosiy obyektlar Muhammad Yusuf va Abdulla Qahhorlardir. Bunda yozuvchi tarjimayi holini haqqoniy aks ettirish, uning asarlari qatiga singgan biografik holatlarni o'rganishga ham e'tibor berildi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Adabiyot tarixiga, xususan, yozuvchi biografiyasiga mafkuraviy yondoshuv qanday salbiy oqibatlarga olib kelganini Abdulla Qahhor hayoti va ijodining o'rganilishida kuzatishimiz mumkin. Xususan, I.Borolina, V.Smirnova, H.Abdusamatov kabi tanqidchilar yozuvchi hayoti va ijodini, asosan, zamon mafkurasi talab etgan ruhda talqin etdi. Yozuvchi hayoti va ijodiga oid ilmiy-tanqidiy maqolalarda ham biografik ma'lumotlar ko'plab keltirilgan. Shuningdek, Abdulla Qahhor ijodi bo'yicha yozilgan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida ham biografik ma'lumotlar ko'p uchraydi.

Muhammad Yusuf haqida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib ular mazmunan shoirning ijtimoiy, siyosiy faoliyati, boy adabiy merosining tahliliga bag'ishlangan. Shoir haqida Naim Karimov, Umarali Normatov, To'liqin Nurmuhammad, M Jo'rayeva, B.Mirkamolova, D.M. Shodiyeva va boshqa bir qator ijodkorlarning ilmiy maqolalari chop ettirilgan va hozirgacha davom etib kelmoqda. Muhammad Yusuf hayoti bo'yicha, avvalo, rafiqasi Nazira as-Salom, zamondoshlari tomonidan yozilgan esdaliklar, hamda shoir Shukur Qurbonning "Muhammad Yusuf saboqlari" va yana ko'plab maqola va dissertatsiyalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. O‘zbek adabiyotshunosligida ijodkor biografiyasini yaratishning mavjud muammolarini, xususan, sho‘ro davrida ijod qilgan Abdulla Qahhor hamda mustaqillik davrining eng zo‘r shoirlaridan biri Muhammad Yusuf tarjimayi holi va u bilan aloqador muammolarni o‘rganish hamda yozuvchi ijodini o‘rganishda biografik metodning ahamiyatini o‘quvchilarga metodik jihatdan yondashgan holda yosh davrlariga moslab tushuntirish. Tarjimai hol va u bilan aloqador muammoli jihatlar – biografik metodning o‘zbek adabiyotshunosligida qo‘llanishini nazariy va amaliy jihatlardan tadqiq etish zaruriyatini tug‘dirdi. Sobiq sho‘ro zamoni adabiyotshunosligida bu masalada yo‘l qo‘yilgan soxtaliklarni aniqlash maqsadida bir qancha juz‘iy masalalarni hal etish vazifasini ham o‘z oldimizga qo‘ydik:

- Adabiyotshunoslikda ilmiy biografiya yaratish tarixi va uning mavjud muammolarini o‘rganish;
- Ta’lim darsliklarida biografik metodga oid asarlarning o‘rganilishi va ularning ahamiyatini yoritishning asosiy jihatlari;
- Yangi o‘rganilgan ma’lumotlar va tahlillar asosida tanlangan obyektlar (Abdulla Qahhor, Muhammad Yusuf) biografiyasini ilmiy o‘rganish.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ish amalga oshirilish jarayonida maktab va akademik litsey darsliklarida o‘quvchilarning o‘quv, bilim faoliyatini izchil shakllantirishga yo‘naltirilgan nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. Shuningdek, umumta’lim maktablari va akademik litseylarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlardan foydalangan holda o‘qitilishi va o‘rganish bo‘yicha tegishli interaktiv metodlar, metodik ko‘rsatmalar va ilmiy tavsiyalar beriladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning ob’yekti umumta’lim maktablari va akademik litsey adabiyot darsliklari va unga kiritilgan Muhammad Yusuf va Abdulla Qahhor hayoti va ijodiga oid materiallarni tashkil qiladi. Bundan tashqari yozuvchi va shoir hayoti va ijodiga bag‘ishlangan monografiyalar va tadqiqotlardan ham foydalanildi.

Tadqiqot metodlari. Innovatsion ta'lim metodlari, hamkorlikda o'qitish, loyihalash, muammoli ta'lim, o'yin texnologiyalaridan hamda ular tarkibida qo'llaniladigan interaktiv metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi: Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I BOB. BIOGRAFIK METODNING NAZARIY MUAMMOLARI VA ADABIY PORTRET

1.1. Biografik metodning ilmiy-nazariy va metodik asoslari.

Adabiyotshunoslikda biografiya yozish tarixi uzoq zamonlarga borib taqaladi. Bu borada g'arb adabiyotshunosligi ancha yutuqlarni qo'lga kiritgan. XIX asr adabiy tanqidchiligida Sharl Sent-Byov va Andre Morua asarlarida biografik yondashuv, biografik metodning nazariy va amaliy jihatlari borasida diqqatga molik fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, yozuvchi biografiyasini yaratishning asosiy maqsadi, vazifalari ham ilmiy asoslab berilgan.

Adabiyotshunoslikda biografik metod yozuvchi ijodini uning hayotiy tajribalari ifodasi sifatida o'rganish usulidir. Bu usulga ko'ra, yozuvchining asarlari bilan birga uning shaxsi, kechinmasi, hayoti, zamoni, muhit yaxlit borliqdir. Shu bois asarlar tahlil etilayotganda yozuvchining ichki dunyosi, xarakteri, odatlari, kayfiyati, xususiyati, fazilatlar, kundalik hodisalar, uy-joyi, yashash tarzi, ruhiyati, ijodiy olami, ijodidagi g'oyaviylik va badiiylik kabi jihatlar yaxlit o'rganiladi. Ijodkor biografiyasini o'rganish esa biografik metod bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning yashagan davri, turmush sharoiti va davr bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma'naviy omillarga ko'proq e'tibor berish lozim bo'ladi.

Fransuz adabiyotshunosi va adibi Sharl Sent-Byov (1804-1869) biografik metodning asoschisi deb e'tirof etiladi. Uning “Литературные портреты” , “Жизнь стихотворения и мысли Жозефа Делорма”¹ nomli asarlarida ilmiy biografiya yaratish haqida chuqur mulohaza yuritilgan. Shuningdek, fransuz adabiyotshunosi Andre Moruaning “Литературные портреты”² , V.S.Baraxovning “Литературный портрет”³ kabi asarlarida ilmiy biografiya yaratishning nazariy va amaliy masalalariga to'xtalangan.

O'zbek adabiyotshunosligida biografik yondoshuv, biografik metod to'g'risida nazariy asarlar va qo'llanmalar yaratilganmi, yozuvchilar biografiyasini

¹ Сент – Бёв Ш. Литературные портреты. - М., Худож. Лит., 1970; Сент – Бёв Ш. Жизнь, стихотворения и мысли Жозефа Делорма. Л., Наука, 1986. - С. 18.

² Моруа А. Литературные портреты. -М., Прогресс, 1971, - С. 22.

³ Барахов В. С. Литературные портреты. -Л., Наука; 1985, - С. 34.

yaratish qay tarzda amalga oshirilgan, bugun bu sohadagi ishlar qay darajada? Mazkur savollarga javob berish 3-4 yil oldin anchayin mushkul edi. Ammo hozir bu borada bir qancha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin baribir bizning adabiyotshunosligimizda biografik metodning nazariy jihatlari hamon yaxshi o'rganilmasdan qolmoqda. Biografik metodning nazariyasi bo'yicha izlanishlar olib borilmagan.

Jahon adabiyotshunosligida biografik metodning asosiy masalalari yaxshi yoritilgan nazariy adabiyotlar talaygina. Umuman, biografik metod buyuk shaxs tarjimai holini mufassal o'rganish tufayli vujudga kelgan. Ta'kidlash joizki, ijodkor biografiyasini ilmiy o'rganish metod sifatida turli davrlarda mafkuraviy qarashlar asosida yaratilgan asarlarni xolis o'rganish ehtiyoji tufayli rivojlanib borgan. Shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiyning "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlarida buyuk kishilar tarjimai holidan xabar berilgan. Xususan, Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida ulug' Navoiy tarjimai holining asosiy jihatlari yozilgan⁴. Akademik I.O.Sultonovning "Navoiyning qalb daftari" nomli kitobida ijodkor shaxs biografiyasini kichik detallarigacha o'rganishga harakat qilgan. Biroq o'zbek adabiyotshunosligida biografik metodning spetsifik muammolari haqida ilmiy izlanishlar olib borilmaganini ham qayd etish zarur.

Ma'lumki, sho'rolar davrida yozuvchi tarjimai holini o'rganish mafkuraviy qoliplarga solingan edi. Bunda yozuvchi hayoti va ijodining ba'zi bir jihatlaridan ko'z yumib o'tildi. Natijada, yozuvchilarni har xil guruhlarga ajratish hollari ham yuz bergan. Yigirmanchi yillarda "proletar yozuvchisi", "burjua yozuvchisi", "ergashuvchi yozuvchi" degan atamalarning paydo bo'lgani fikrimizning dalilidir.

O'zbek adabiyotshunosligi tarixida hayoti nisbatan noma'lum ijodkorlar biografiyasini uning asarlaridan kelib chiqib, tiklashga urinish professor Fitrat tomonidan amalga oshirilgan. Olimning Ahmad Yugnakiy, Muhammad Solih, Turdi va Mashrab haqidagi tadqiqotlarida⁵ ilmiy biografiya yaratishning bunday

⁴ Navoiy Alisher. Asarlar: 15 t. – T., Badiiy adabiyot, 1976, - B. 45.

⁵ Fitrat. //Hibat ul-haqoyiq// Maorif va o'qituvchi – 1928. – Yulduzcha, - B . 48.

usuli qo‘l kelgan va mazkur ilmiy ishlar shu yo‘nalishdagi dastlabki tajribalar sanaladi. To‘g‘ri, o‘zbek adabiy tanqidchiligida biografik metod to‘g‘risida ham fikrlar bildirilgan.

Biografik metodning nazariy shakllanishi va o‘rganilishi ko‘proq ijodkor tarjimayi holi bilan bog‘liq jarayon. Shu sababdan ham mazkur metod talab etgan asoslar- yozuvchi tarjimai holini, uning ijodini shaxsiy kechinmalari sifatida yaratish maqsadga muvofiq.

Aytish joizki, biografik yo‘sinda yaratilgan asarlar adabiyotshunosligimizda uzoq tarixga ega. Alisher Navoiy ijodida biografik holat, hasbi hol keng o‘rin egallagan. Uning “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” kabi hasbi hol asarlari biografik asarlar sirasiga kiradi. Umuman, Navoiy davrida hasbi hol ma’lum maqsadni ko‘zlab yozilgan. O‘sha paytlarda xalqning tiliga tushgan tabarruk kishilar tarjimai holini – “holoti” ni yozish odat bo‘lgan. Mumtoz adabiyotimizda yozuvchi biografiyasini yozishga alohida e’tibor berilmagan. Sho‘ro davrida esa biografiya yaratish muayyan muammolarga duch keldi. Chunki o‘sha zamonlarda adabiyot tuzum tazyiqida kun kechirdi.

Adabiyotshunoslikda biografik metod yozuvchi ijodini uning hayotiy tajribalari ifodasi sifatida o‘rganadi. Biografiya esa janr sifatida yozuvchi tarjimayi holini yaratadi. Adabiy portret adabiy janr turi sifatida ijodkor holatining ma’lum fasllarini kuzatadi. Bu yerda adabiy – ilmiy jarayonning tadqiqot obyekti ijodkor biografiyasidir.

Biografiya yunoncha so‘z bo‘lib, “hayot”, “yozaman” –tarjimayi hol, “umr tarixi”, “bitikdagi taqdir” ma’nolarini anglatadi. Taniqli adabiyotshunos Abdug‘ofur Rasulov biografiya so‘zini Alisher Navoiyning ushbu so‘zga bo‘lgan munosabati bilan bog‘laydi. “Ulug‘ Alisher Navoiy “hol” so‘zini e’zozlagan, undan unumli, bisyor darajad foydalangan. “Hol” arabiy so‘z. Ko‘pligi “ahvol”, yana holot. Alisher Navoiy “hasbi hol”, “holot adosi”, “holot kayfiyati”, “zavqu

holot”, “parishon holot” singari birikmalardan oʻrni-oʻrnida foydalangan. “Hol” aslida “biografiya” singari, ruhiy hayot, maʼnaviy harakat degani”⁶.

Badiiy adabiyot oʻz taraqqiyoti jarayonida tarixni, avlodlar bosib oʻtgan davrning ijtimoiy-siyosiy, moddiy-maʼnaviy dunyosini oʻrganadi va undan saboq oladi. U oʻtmishni bugungi hayot bilan taqqoslaydi. Adabiyotda yana bir muhim jihat borki, bu ham boʻlsa, memuar-biografiyalar yaratishdir. Shu bois biografiyada ijodkor asarlarini uning shaxsi, hayotiy kechinmalari bilan bir qatorda chuqur oʻrganish maqsadga muvofiq. Adabiyotshunos olim L.Y.Ginzburg biografiyaning bir koʻrinishi boʻlgan adabiy portret yaratish haqida shunday deydi: “Adabiy xotiralar, tarjimayi hollar, tavba-tazarrular va “fikrlar” inson haqidagi suhbatning davomidir” . Biograf-olimaning tarjimayi hol yaratishda adabiy portret yozish sanʼatining qay darajada muhim ekanini taʼkidlashi bejiz emas. Chunki shaxs portretini keng maʼnoda ilmiy-estetik tasvir deyish mumkin.

Adabiy portret nazariyasida muayyan muammolar ham mavjud. Bu borada adabiyotshunoslar turlicha munozarali fikrlar bildirishadi. Gap shundaki, “adabiy portret” termini keng maʼnoni qamrab olgan. Adabiyotshunoslikda “adabiy portret” terminiga asosan quyidagicha izoh beriladi: “Adabiy portret” istilohi insonni estetik jihatdan bilishning oʻziga xos vositasini anglatadi va ushbu bilishning spetsifikasini tavsiflaydi”. Bundan, adabiy portretni izohlayotganda uning janriy oʻziga xosligini eʼtibordan chetda qoldirmaslik lozim, degan tushuncha kelib chiqadi. Ayni paytda, zamonaviy adabiyotshunoslikda “adabiy portret” istilohining boshqacha taʼriflari ham uchrab turadi. Jumladan, uning biografik ocherk, adabiy-tanqidiy maqola, degan taʼriflari mavjud. Bu borada aniq tasavvurga ega boʻlish maqsadida “Краткая литературная энциклопедия” ga murojaat qilaylik:

“Adabiy portret”:

1) Insonning tashqi qiyofasini aks ettirish, (yuz chiziqlari, qomati, turishi, imo-ishoralari, baʼzan esa kiyimi) uning xarakterini berish vositalaridan

⁶ Rasulov A. Ilmi gʻaribani qoʻmsab. – T., //Maʼrifat, 1998, - B. 22.

biri, kompozitsiya unsuri sifatida portret, peyzaj va muhit tasviri bilan birgalikda bayonning bir turi hisoblanadi.

2) U yozuvchi, san'atkor, jamoat arbobi va hokazolar haqidagi hujjatli ocherk bo'lib, u "qahramon" bilan suhbatlar asosida yaratiladi yoki shu qahramon haqidagi memuar ocherk. Adabiy portret qahramonning jismoniy, ma'naviy, ijodiy jihatdan bir butun qiyofasini yaratishga yoki uning hayotining qisqa vaqt oralig'idagi ma'no-mohiyatini, pafosini ochishga harakat qiladi.

Ko'rinadiki, adabiy portret shaxsning ichki va tashqi olamini, hayotini va ijodini yaxlit holda ilmiy jihatdan o'rganadigan janrdir.

Adabiy portret nazariyasi haqida olimlar turlicha fikrlar bildirgan. Masalan, A.A.Sivogrivova "Adabiy portret bu – ruh harakatini qayta yaratish, nozik va ingichka tuyg'ularni kuzatish, ma'naviy boylikka e'tibor qilishgina emas, balki takrorlanmas shaxsiy hissiyotlarni ifoda etish hamdir", desa, A.Kudryasheva uni nazariy tomondan baholaydi: "Hozirgi adabiy portretlarga nisbatan gapirganda, eng muhim va qiyin masala shundaki, ularning mualliflariga nazariy bilim va metodologiya yetishmaydi. Inshoning qiziqarliligiga e'tibor qilgan hozirgi mualliflar ko'pincha nazariy masalalarda yengiltaklik qiladilar. Fikrdagi aniqlik ko'pincha zarur hisoblanmaydi (bu axir nazariy tadqiqot emas), buning o'rniga tushunchalarda tashqi o'xshashlik ustunlik qiladi. V.S.Baraxov adabiy portret to'g'risidagi quyidagi fikrga keladi: "A.Kudryasheva hamda A.I.Pavlovskiyning qarashlarini to'liq e'tirof eta turib, mazkur jiddiy nazariy muammoni hal etish vositasi nafaqat adabiyotshunoslar, balki boshqa gumanitar fanlar vakillarining ham birgalikdagi sa'y-harakatiga bog'liq ekanini alohida qayd etishimiz zarur.

Adabiy portert spetsifikasi, xuddi rang-tasvirdagi kabi, avvalo, uning muayyan shaxsdagi o'ziga xoslik bilan belgilanadi. Ishonchlilik, yoki boshqacha aytganda, qiyofaning o'xshashligi janrning ajralmas xususiyatidir".

Turli olimlarning adabiy portret nazariyasi haqidagi fikrlarini qarab chiqish bizga bir qancha xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1) adabiy portret ijodkorning badiiy olami haqidagi ilmiy tadqiqot, ayni chogʻda, uni portret nazariyasi talqiniga ham mos boʻlgani uchun ijodkorning ilmiy obrazi deyish ham mumkin;

2) adabiy portretning nazariy oʻrganilishida muammolar mavjud. Bu hol koʻproq rus adabiyotshunoslarining ilmiy asarlarida uchraydi. Oʻzbek adabiyotshunosligida esa adabiy portretning muammoli tomonlari hamon ilmiy tahlilga tortilmay kelmoqda. Shu nuqtai nazardan oʻzbek adabiyotshunosligida adabiy portret nazariy va ilmiy talqiniga ega boʻlishi lozim.

3) Aytish kerakki, bizda ham Sh.Sent-Byov, A.Morua kabi portretchilarimiz adabiy portretlar galereyasini yaratganlar. Biroq ularning shaxs portretini oʻrganish yoʻli gʻarb portretchilaridan farqlanib turadi.

Adabiy portret haqidagi mulohazalarimizni yana portret nazariyasi, uning lugʻaviy maʼnosi hamda tarixi bilan davom ettiramiz. Portret soʻzining lugʻaviy maʼnosi keng : u qadimiy fransuz soʻzidan “pour – traict” - yaʼni aslini tasvirlash maʼnosini bildiradi. “Trait pour trait” – (“черта в чертуб черта за черту”) soʻzning negizi esa lotin feʼlidan “protrere” – “tashqariga chiqarmoq”, “namoyon qilmoq”, “tasvirlamoq”, “portretlashtirmoq” degan maʼnolarni bildiradi. Portret yaratish nafaqat adabiyotshunoslikda, balki rassomchilik, haykaltaroshlik, fotografiya uchun ham muhim.

V.Belinskiyning fikricha, portret sanʼati insonning ichki olamini, ruhiyatini anglashdir: “Portretni toʻgʻri yozishning oʻzi ham bir talant, biroq hamma narsa shu bilan tugamaydi. Oddiy bir rassom tanishingizning portertini juda oʻxshash qilib chizdi; siz uni darhol tanib olasiz, chunki oʻxshashlik haqida shubha boʻlishi ham mumkin emas. Shunday boʻlsa ham baribir norozi boʻlaverasiz, sizga tuyuladiki, goʻyo oʻziga oʻxshasa ham asliga oʻxshamaydi... Keling, uning portretini Tiranov yoki Bryullov chizsin – shunda sizga, hatto, oyna ham tanishingizning qiyofasini shunday oʻxshash qilib aks ettirmaydiganday tuyuladi,

chunki bu nafaqat portret, balki badiiy asardir, unda tashqi o'xshashlikkina emas, ruh ham ilg'ab olingan"⁷.

Keltirilgan iqtibosdan anglash mumkinki, adabiy portret real shaxsning zohiri va botinining ilmiy tasviridir. Bunda ijodkor nafaqat ijodkor sifatida, ayni paytda ijodkor-shaxs sifatlarida keng miqyosda o'rganiladi. Fransuz adibi Mopassanning Flober portreti to'g'risidagi fikri ham bizning mulohazamiz bilan monand bo'lib, u shunday yozadi: "Hozir reportajlar moda bo'ldi, san'atkor shaxsi bilan tanishishdan ilgari odamlar uing bo'yi, yuz qiyofasi, odatlari haqida bilishni va eng ko'p darajada, hatto ijodidan ko'proq biografiyasini bilishni xoxlaydi; mana shuning uchun ham men ayrim yozuvchilarning portretini yozishga harakat qilaman, ular yaratgan kitoblar mazmuni va uslubi haqida biroz to'xtalib o'taman xolos". Mopassan yozuvchining ijodini emas, balki shaxsini ham kitobxon ko'z o'ngida namoyon qilish zarur, degan edi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz adabiy portret sintetik umumlashma san'at, deyishga haqlimiz.

Adabiy portret memuar – biografik asar singari real shaxs hayotini o'rganadi, qahramon bilan uchrashuvi, suhbat, muhiti, sharoiti, davri, boringki, portret bilan bog'liq bo'lgan jamiki voqea-hodisalarni yozish, uning o'rganish obyekti hisoblanadi. XVII asr rus adabiyotida adabiy portret yaratish an'anaviy tusga kirgan edi. Bu davrda Karamzin g'arbiy Yevropaning XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida yashab o'tgan taniqli faylasuflar, yozuvchilar, shoirlarning obrazlar galereyasini yaratdi (Kant, Lafater, Viland, Gerder kabi). XIX asrga kelib rus adabiyotida adbiy portret yaratishda buyuk Pushkin yetakchilik qildi. XX asrga kelib esa Korolenko, Bunin, Kuprin, Veresayev, Rozanov kabi rus adabiyoti namoyondalari adabiy portret yaratishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi.

Fransuz adabiyotida adabiy portret yaratish Charl Sent – Byov nomi bilan bog'liq deb ta'kidlagan edik. U ijodkor shaxsini o'rganishga juda qiziqar edi. U o'zidagi qiziqishni shunday yozadi: "Meni buyuk yozuvchilarning xatlari, fikrlari, xarakterining turli qirralari, axloqiy qiyofasi, bir so'z bilan aytganda, biografiyasi har doim qiziqtirib kelgan, ayniqsa, mengacha hech kim bunday qiyosiy biografiya

⁷ Белинский В. Г. Полн. собр. соч.: - Л., Наука, 1986, - С. 9.

bilan shugʻullanmagan boʻlsa va men oʻzim uning rejasini tuzishga intilib, faqat oʻzim uchun harakat qilayotgan boʻlsam, bu ish menga alohida zavq bagʻishlardi”.

Sh.Sent – Byov ijodkor biografiyasini oʻrganish, uning ichki va tashqi olamidani voqif boʻlishga shaydo boʻlgan oʻta sanʼatkor-portretchidir. Shu bois ham uning qalami ostidan chiqqan Pyer Kornel, Matyuren Rene, Andre Shene, Lafonten, Deni Didro, Viktor Gyugo kabi fransuz ijodkorlarining adabiy portretlari goʻzal va takrorlanmas, badiiy talqini chiroylidir.

Sh.Sent – Byov ijodkorlar dunyosi bilan qiziqar ekan, oʻzining portret yarata olish mahoratiga ishonib: “Mening tanqidiy ishlarim, har doim ixtiyoringa qarshi oʻlaroq, yozuvchi yoki asar haqidagi psixologik tadqiqotga aylanib ketadi”, degan edi. U yozuvchi biografiyasini oʻrganish murakkab emasligini portretchi yoki tanqidchiga uqtirib, fikrini davom ettiradi: “Ularning oʻzlari sizga oʻzi haqidagi barcha gapni aytib berishadi, oʻzlari sizning tasavvuringizda namoyon boʻladi. Bunga shubha qilmang! Hech bir yozuvchi, ayniqsa, shoir sizdan hech narsa yashirmaydi”.

Sh.Sent – Byov “Жизнь, стихотворения и мысли Жозефа Делорма” asarida Jozef Delorm obrazini yaratdi. Unda Jozef Delorm hayoti, sheʼrlari va qarashlari tasvirlangan edi. Bu kitob chop etilgandan keyin, unga nisbatan turli fikrlar bildirildi. Hatto, bu asarni tarjima qilgan Inna Shafarenko “Jozef Delorm – Sent -Byovning oʻzi”, degan edi.

U Jozef Delormning adabiy portretini goʻzal badiiy obraz darajasiga koʻtardi. U Jozefning bolalik vaqtini, ilk muhabbatning shirin azoblarini ham tasvirlagan edi. Oʻzining adabiy-tanqidiy qarashlarini esa Jozef Delorm obraziga singdirib yubordi. Shuningdek, Andre Morua ham Labryuyer, Volter, Russo, Shatobrian, Alfred de Myusse, Stendal, Balzak kabi fransuz yozuvchilarining adabiy portretlarida bu ijodkorlarning haqiqiy obrazini yaratdi.

Oʻzbek adabiyotshunosligida esa biografiya yaratish gʻarb va rus adabiyotshunosligida shakllangan yoʻldan farqlanib turadi. Buni tarjimai hol yaratishda biografik metodning metodologik xususiyatlari joriylanmaganligi,

o'rganilmay kelinayotgani bilan izohlash mumkin. Buning natijasida adabiyotimizda ilmiy biografiya yaratish rivojlanmay qoldi.

S.Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayevlar muallifligida "Adabiyot 5. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma" nomi bilan chop etilgan o'qituvchi kitobidagi A. Oripovning "O'zbekiston" qasidasini o'rganish yuzasidan berilgan metodik maqolada quyidagicha tavsiyalarni o'qishimiz mumkin: **"Shoirning hayoti va ijodiga bag'ishlanishi lozim bo'lgan 2 soatni ikkiga – bir soatini uning hayoti va ijodiy faoliyatiga, ikkinchi soatini bevosita "O'zbekiston" qasidasi tahliliga ajratib foydalanish mumkin"**⁸. Holbuki, zamonaviy adabiyot o'qitish metodikasi fanida "umumta'lim maktablarining bitiruvchi – to'qqizinchi sinfi adabiy ta'limidagina ijodkor umr yo'lini o'rganish uchun alohida soat ajratiladi deb ko'rsatiladi"⁹. Metodist olim Q.Yo'ldoshev adabiyot o'qituvchilariga quyidagicha tavsiya beradi: **"O'qituvchi o'quvchilarni o'tiladigan har bir yangi mavzu oldidan adibning tarjimai holiga doir ma'lumotlarni o'zlari uyda o'qib kelishlariga odatlantirgani ma'qul"**¹⁰. Biz ustozning yuqoridagi fikrlarini juda o'rinli, o'quvchini izlanuvchanlikka, mustaqil o'qishga o'rgatadigan usul sifatida yuqori baholaymiz hamda o'quvchilarga qo'shimcha ma'lumotlar topish va o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini berishni ham tavsiya qilamiz. Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov hamda J.Yo'ldoshbekovlar muallifligida yaratilgan "Adabiy saboqlar 9" nomli metodik qo'llanmasida esa bu muhim masalaga oydinlik kiritilgan: ***"O'qituvchi to'qqizinchi sinf adabiy ta'limi yo'nalishini belgilashda yana bir jihatga alohida e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. Ma'lumki, 5–8-sinflardagi adabiyot darslarida yozuvchi tarjimai holini o'rganishga alohida vaqt ajratilmaydi. O'quvchilar uchun ijodkor to'g'risida u sinflarda o'zlashtirilgan bilimlar qo'shimcha ma'lumot maqomida bo'ladi. Bu sinflarda adabiy ta'lim to'lig'icha adabiy o'qitish tarzida yo'lga qo'yilgani uchun ham yozuvchi bilan uning o'rganilayotgan asari orasidagi bog'liqlik sezilarli bo'lmas edi. To'qqizinchi***

⁸S.Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot 5. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T., Sharq, 2007.138-bet.

⁹Mirqosimova M., Atamuradova R. Ta'lim bosqichlarida Abdulla Oripov hayoti va ijodini o'rgatish usullari. Al Ikrom Print, Jizzax 2012,10-bet.

¹⁰Yo'ldoshev Q. Adabiy saboqlar 8 (8-sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma).–T., Sharq, 2004, 62-bet.

*sinfдан boshlab esa adabiyot o‘qitish tizimli kursga bir qadar yaqinlashadi, o‘quvchilar ham yosh jihatdan ijodkor shaxsiyati, uning bosib o‘tgan hayot yo‘li bilan muayyan asari o‘rtasida aloqa borligini payqay oladigan darajaga ko‘tariladi. Shuning uchun ham 9-sinfдан boshlab, yozuvchi-shoirlarning tarjimayi holini o‘rgatishga alohida vaqt mobaynida to‘xtalish maqsadga muvofiq sanaladi.*¹¹

Shu o‘rinda izlanuvchi-tadqiqotchi sifatida, atoqli metodist ustozlarimiz keltirgan yuqoridagi fikrlarni inkor etmagan holda, bu masalaga o‘z ikr-mulohazalarimizni bildirmoqchimiz. 5–8-sinflar adabiyot darsliklariga kiritilgan shunday asarlar borki, ularni muallif tarjimayi holi bilan bog‘liqlikda o‘rganilmasa, dars saviyasi, samaradorligi, eng asosiysi, o‘quvchilarning asar g‘oyasini anglab yetishida ancha qiyinchiliklar tug‘iladi. Masalan, aynan 5-sinfda Zahiriddin Muhammad Bobur, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov kabi adiblarimizning ijod namunalarini ularning tarjimayi holi bilan bog‘lamasdan o‘rganishning hech ham iloji yo‘q. Jumladan, Bobur ruboiylarini o‘rganishdan oldin u bosib o‘tgan mashaqqatli hayot yo‘li haqida ma‘lumot berish maqsadga muvofiq. O‘qituvchi tomonidan shoir haqida quyidagi kabi fikrlarni eslatish o‘rinli deb bilamiz: Ism va jismning bir-biriga monand kelishi kamdan-kam uchraydigan hodisalardan sanaladi. Ammo biz o‘rganmoqchi bo‘lgan shoh-shoir Bobur Mirzo o‘zining qisqa umr yo‘li davomida juda ko‘plab hayot sinovlaridan o‘tib “dilbar shaxs” darajasiga erishgan.

Davron meni o‘tkardi sar-u somondin,

Oyirdi meni bir yo‘li xonumondin.

Gah boshima toj, gah baloyi ta’na,

Nelarki boshimg‘a kelmadi davrondin¹²

deya davronning turfa qiliqlari haqida yozgan shoirning ustози Buxoroyi sharif madrasalarida, Bag‘dod-u Basrada emas, beshafqat hayotning o‘zi bo‘ldi...

¹¹Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiy saboqlar 9 (9-sinf “Adabiyot” darsligi uchun metodik qo‘llanma).–T., “Yangi yo‘l Poligraph servis”, 2006, 6-bet.

¹²Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.II qism. –T., “Sharq” 2011.115-bet.

Ammo bir qo‘lida zahar, bir qo‘lida shakar tutadigan hayot uni o‘zining ajoyib-ug‘aroyib in’omlaridan ham benasib qilmay, buyuk iste’dod – shoirlikni hadya etdi. Qismat esa uni, bir tomondan, o‘n to‘qqiz yoshida tug‘ilgan diyorini tark etishga, ikkinchi tomondan, yigirma besh yoshida Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Bangladesh kabi qator mamlakatlarning aksar qismini zabt etib, buyuk boburiylar saltanatiga asos solgan imperator darajasiga olib chiqdi...

5-sinf o‘quvchisining yosh xususiyatlari, bilim saviyasi, mumtoz she’r namunasini tushunish darajasini inobatga olib, darslikda o‘rganish uchun berilgan yuqoridagi ruboiyni tahlil qilish namunasini keltirmoqchimiz:

Dastlab ruboiy o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan yod aytiladi yoki ifodali o‘qiladi. Uning tili sodda va tushunarli ekanligi, ayrim hozirgi kunda tushunarsiz so‘z(davron– taqdir, zamon, davr; sar-u somon– sara(bug‘doy); xonumon– oila, ro‘zg‘or, bor-u yo‘q)larning izohi bayon qilinadi. Endi o‘quvchilar diqqati matnda ifodalanayotgan g‘oyaga qaratiladi: Hayot shoirni o‘z sinov va mashaqqatlaridan benasib qilmay “siyladi”. Bu “siylov”lar: 12 yoshda yetimlik, 15 yoshda bobo yurt bo‘lmish Samarqandni egallash quvonchlari va undan bir necha marta ayriliq iztiroblari, atrofidagi yaqin insonlarining xiyonatlari va boshqalar edi. Ona yurtidan yiroqda bo‘lish, o‘zi tug‘ilib o‘sgan tuprog‘iga bo‘lgan muhabbat, unga yetishish orzusi doimo ko‘nglining eng yuksak qavatlarida saqlandi. Ko‘plab hukmdorlarning toj-u taxt uchun kurashishdan maqsadi behisob mol-dunyo orttirish, farovon umr kechirish bo‘lsa, Bobur Mirzo harakatlarida xalqning osoyishta turmushi, porloq kelajagi, ilm-ma’rifatli bo‘lishi uchun kurash o‘z aksini topgan. Lekin bu oltin tojning soyasi uning butun hayoti davomida mashaqqatli kunlarning bisyor bo‘lishida asosiy sababchi ham bo‘ldi. Unga jang-u jadallar iztirobi, nohaqliklar zahmati, hatto hukmdor bo‘lsa-da, mulksizlik ranj-u mehnati kabilarni “tuhfa” etdi. Shoir ...**Nelarki boshing‘a kelmadi davrondin**, deganida ahvolining naqadar ayanchli ekanligi haqida mardona, baralla, ro‘yirost qog‘ozga tushiradi va shundayligicha o‘quvchiga taqdim etadi. Bu kabi ruboiylar tahlilida adib tarjimayi holi bilan bog‘liq tafsilotlar ham aytib o‘tilmasa, she’rning mazmun-mohiyati to‘la anglashilmaydi.

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning “Nido” dostonini ham shoirning avtobiografik ruhda yozilgan dostoni deb ayta olamiz. Doston dahshatli va shafqatsiz qirg‘in tufayli otasiz qolgan millionlab ma’sum go‘daklar chekkan nola-yu fig‘onlar, sog‘inch iztiroblari, hijron alamlarini aks ettirgan asar sifatida xarakterlidir. Dostonning yuraklarga titroq soluvchi dastlabki bandini tahlil qilish namunasini ko‘raylik:

Hayqiraman,

Tog‘lar bag‘ridan

Gumburlagan sado keladi.

Ona yerning otash qa‘ridan

“O‘g‘lim!” degan nido keladi...¹³

Ota-ona sog‘inchi – bola uchun juda katta azob. Bola har qanday sharoyitda ular bilan birga bo‘lishni istaydi. Endi tasavvur qiling: urush, to‘s-to‘polon...go‘yo ajal burchak-burchaklardan mo‘ralab, kimni changalimga olsam ekan deb turgandek... Bolaning otasi vafot etgan. Lekin uning qalbidagi ota mehriga bo‘lgan tashnalik tog‘larni gumburlatar darajada sado taratib, hayqirishiga sabab bo‘lmoqda. Shoir doston boshlanmasida bejiz tog‘lar, ona yer kabi obrazlarni keltirmaydi. Dunyoda vaqt sinoviga bardosh bera oladigan mustahkam yaratiq bu – tog‘lardir. Xalqimiz otani matonati, bardoshi, oilaning ustuni, suyanchig‘i deya tog‘ga qiyoslaydi. Aynan shuning uchun ham bola tog‘lar bag‘ri, ya’ni o‘z otasidan “O‘g‘lim!” degan sadoni eshitadi. Chunki urushda halok bo‘lgan otaning jismi yer bag‘rida, shuning uchun ham uning “O‘g‘lim!” degan nidosi yer qa‘ridan kelib turishi ayni ishonarli haqiqat. **“Bu dostonni shoir qalb o‘rtanishi, so‘ngsiz armon va yurak qoni bilan bitganini ko‘ramiz. Otasini jangga undagan sabablar: hayot, erk, kelajak. Butun Yer – undagi bor avlod ekanini anglab yetadi”.**¹⁴ Undan tashqari shoirning zamondoshlari, tengdosh o‘rtoqlari hayotida ham urush yetkazgan dahshatli fojea dog‘larini ko‘rishimiz mumkin. Bir oyoqsiz

¹³Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.II qism.- T., “Sharq” 2011.163-bet

¹⁴Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. – T., Muharrir, 2013. 169-bet.

urushdan qaytgan Rustamning akasi, o'g'li "Dadajon!"– deb chopib kelganda qo'lidan ayrilgan Xol akaning qucha olmay chekkan faryodi yoki bo'lmasa butun sinf, hatto muallimni ham yig'latgan Tal'atning otasidan kelgan qora xat... Nafaqat butun sinf, butun o'zbek xalqi, butun dunyoni yig'latmadimi bu – Urush deganlari?!. Shoirning yuqoridagi voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rib guvoh bo'lganligi, boshidan o'tkazganligi, ich-ichidan his qilganligi, ya'ni dostonida ifodalangan voqealarning kitobxon qalbiga yetib borishi va ta'sirlantirishida muhim ahamiyat kasb etgan. Demak bu asar tahlilida ham yozuvchi tarjimai holi bilan bog'liq voqealarni o'quvchi ko'z oldida gavdalantirishimiz lozim bo'ladi.

Darhaqiqat, 5-sinf o'quvchisi, hayotning achchiq-chuchugini ko'rmagan bola urush, uning insoniyat boshiga soladigan kulfatlari haqida qaydan bilsin. Urushning oldini olish, unga qarshi kurashish yo'l-yo'riqlarini-chi? Bu masalada yosh avlodga ulardan oldin o'tgan insonlarning hayotiy saboqlarigina amaliy o'rnak bo'lishi mumkin. Agar bunday saboqlar badiiy adabiyot namunalari orqali yetkazilsa, mahoratli o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinsa, asar voqealarining yanada ta'sirchan, ishonchli chiqishiga shubha yo'q. Fikrimizni G'afur G'ulom tomonidan yaratilgan, hayotiy voqeaga asoslangan "Mening o'g'rigina bolam" voqeyi hikoyasini tahlilga tortish bilan davom ettiramiz. Asar voqealari **"Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil – o'n yettinchi yilning ko'klamida onamizdan ajralib, shum yetim bo'lib qoldik. Biz to'rt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Roqiyabibi kelib turardi"**¹⁵, – degan jumlar bilan boshlanishi bejiz emas. Haqiqatdan ham shoirning 9 yoshida otasidan, 15 yoshida onasidan yetim qolgani haqida tarjimai holidan o'qiganmiz. Adib asarda insonning ayni o'ynab-kulib, mehribon ota-onasiga behisob sho'xliklar-u erkaliklarni qila oladigan, "podshohlik taxtiravonida viqor-la o'tiradigan" davri o'rnini shafqatsizlarcha egallagan shum yetimlik, sargardonlik, azob-u uqubatlarga yo'g'rilgan bolalik xotiralarini yuksak badiiyat bilan tasvirlaydi. O'sib kelayotgan avlod hikoyada hayot sinovlarini mardonavor,

¹⁵Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. – T., Sharq, 2011.163-bet.

miyig'ida kulib yenga oladigan G'afur G'ulomdek siymoni uchratadi. Adibning "Shum bola" asari ham yozuvchining yetimlik uqubatlari ustidan qanday g'alaba qila olganining ifodasidir. Agar yozuvchining tarjimaiyati holidan olingan voqealar ham asar tahlili davomida o'quvchilarga tushuntirilib borilsa, har qanday o'quvchi uchun ibrat namunasi vazifasini o'tashi shubhasiz.

Biz xulosa sifatida quyidagilarni aytishni joiz deb bildik: 1. Maktab Adabiyot dasturining 5–8-sinflar uchun tuzilgan bandlarida yozuvchi tarjimaiyati holini o'rganishga alohida soat ajratilmagan. Demak, asar tahlili jarayonida adib haqidagi ma'lumotlar oddiy bir ijodkorning hayot yo'li tafsilotlari emas, uning barkamol avlod tarbiyasi uchun o'rnatilgan jihatlarni tahlilga singdirish va o'quvchiga anglatish lozim bo'ladi. Bu bilan biz, adabiyot o'qituvchilari, bola eslab qolishi qiyin bo'lgan aniq raqamlar, yil va sanalarga asoslangan ta'lim tizimini o'quvchini o'ylashga, fikrlashga, ibrat olishga o'rgatadigan adabiy ta'lim tizimiga o'zgartiramiz.

2. Adabiyot – ma'naviyat xazinasi. Bu xazinaga o'quvchi 5-sinfdan dadil qadamlar bilan kirib kelishi uchun o'z-o'zidan boshlang'ich ta'limdagi darslarning sifat va samaradorligini oshirish lozim bo'ladi, chunki o'qish texnikasini yaxshi egallamagan o'quvchi nafaqat adabiyot, balki boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham oqsashi hech kimga sir emas.

3. Agar adabiy ta'limda o'qituvchi bir xillikdan qochib, darsni har xil usullar orqali tashkil eta olsa, o'quvchi turfa gullar ochilgan gulshanda sayr qilayotganga o'xshaydi. Har bir guldandan o'ziga gacha lazzat olinganidek, noan'anaviy tashkil qilingan dars, mavzuga o'ziga gacha (yozuvchi tarjimaiyati holi bilan bog'liq voqealar asosida) yondashish o'quvchining badiiy adabiyotga qiziqishini yanada oshiradi. Sayyoh bog'dagi gullarning shu darajada chiroyli bo'lib, atrofdagilarga zavq ulashishi, muattar ifor taratishi bog'bonning mehnati, qalb mehri natijasi ekanligini his qilganidek, o'quvchi badiiy asarning ijodkor ruhiyati, ko'rgan-kechirganlari asosidagi qalb kechinmalariga asoslanib yozilganini anglab yetadi.

4. Dasturda yuqorida ijodini tahlilga tortgan adiblarimiz Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ruboiylarini o'rganishga 2 soat, Erkin Vohidov va

uning “Nido” dostoni tahlili uchun 3 soat, G‘afur G‘ulom va uning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi tahliliga 3 soat vaqt ajratilgan. Shu o‘rinda Bobur hayoti va uning ruboiylari tahliliga ajratilgan 2 soat juda kamlik qiladi degan fikrdamiz. Chunki o‘quvchi bugungacha tanishgan barmoq vaznidagi she‘rlardan ruboiy janrining o‘ziga xos xususiyatlarini farqlashni hali bilmaydi. Ularning tahlili davomida matndagi notanish so‘zlar, otashqalb shoirning hayot yo‘li, kechinmalari, shaxsiyati ijodiga ko‘chganligini anglatish lozim bo‘ladi. Yana o‘qituvchi tomonidan ruboiy haqida berilgan nazariy ma‘lumotni ham tushuntirish kerakligini inobatga olsak, bu vaqt kamlik qilishi o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lib qoladi. Demak, Bobur va bu kabi tarjimayi holi o‘z asarlarida yaqqol aks etgan ijodkorlar asarlari tahlili darsdan tashqari, jumladan, to‘garak mashg‘ulotlarida davom ettirilishi maqsadga muvofiq. Bunday asarlar ustida ishlash jarayonida o‘quvchi qahramon qiyofasida adibning o‘zi turganligini payqaydi.

Mumtoz adabiyotimizda biorafiya yaratish borasida biroz tajriba to‘plangan edi. Xususan, Alisher Navoiy Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad siymolarining ichki dunyosini, har ikkovining holatini tasvirlar ekan, ularning iqtidori, xalq nazariga tushish sabablarini bayon etadi: “Soliki foniy va gavhari koniy, orifi maoniy Sayid Hasani Ardasher... siyar va holotida.

Alarning otasi Ardasher Boysung‘ur Mirzo mulozimi erkandur. Qushchilik shevasida mulozamat qilur eerkandur. Ul fanda g‘oyatda muloyamat va nihoyati mahoratdin qushbegilik mansabiga yetibdir, balki mundin dag‘i ko‘p biyikrak munosib, kasb etibdur”, yoki Pahlavon Muhammadga shunday nisbat berib: “Chun qobiliyati baland tushgandur va muloyamati ta’bi borcha funung‘a munosib va bahramand voqe’ bo‘lg‘ondur – ko‘p fazoyil va kamolot ham kasb qilg‘ondurkim, zamon ahli borchada Pahlavonni musallam tutar edilar”.

Dastavval, o‘zbek adabiyotshunosligida adabiy portret yaratish qay tarzda amalga oshirilganligiga e’tiborni qaratsak. Bizda adabiy portret ilmiy-nazariy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan, deb yuqorida ham ta’kidlab o‘tgan edik. Biroq bu hol 30-yillardan boshlaboq adabiy portretlar yaratilishiga to‘sqinlik qilmadi. Jumladan, 1936-yilda Fanlar Komiteti nashriyoti tomonidan chop etilgan “Ijodiy

o'sish yo'lida" to'plamini ijodkor hayoti va ijodi orqali shaxs portretini kuzatishdagi dastlabki yutuq deyish mumkin. Bunda S.Valiyevning Abdulla Qahhor haqida, H.Yoqubovning Hamid Olimjon haqida, Buyuk Karimning G'ayratiy haqidagi ilmiy kuzatishlarini ta'kidlab o'tish joiz.

50- va 70-yillarga kelib adabiy portretlar yaratish keng ko'lam kasb etdi. Ayniqsa, Ozod Sharafiddinovning "Iste'dod jilolari", M.Qo'shjonovning "Shomil Alyadin". B.Nazarovning "Chingiz Aytmatov", "Abdulla Oripov", "Said Ahmad", M.Sharipovning "Shukur Sa'dulla" kabi asarlarida shaxs-ijodkor portretining ilmiy umumlashma obrazlari berilgan. 80-90-yillarda ham adabiy portret yaratishda yaxshi natijalarga erishildi. Umuman, adabiyotshunoslikda adabiy portret yaratish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etdi. Shu sababdan ham adabiy portret yaratishning yutuq va kamchiliklarini ilmiy o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotshunos Dilmurod Quronovning biografiya yaratish borasida izlanishlari nazariy jihatdan yangicha qarashlar bilan bog'liq, deyish mumkin. U shunday yozadi: "Bizda ijodkor biografiyasi qanday o'rganiladi?"¹⁶ - degan savolga to'xtalib o'tish lozim. Afsuslanarli tomoni shundaki, bizda yozuvchi va shoirlar hayotiga oid faktlar saylab o'rganiladi, saylab ilmiy muomalaga kiritiladi. Nega shunday? Buning bir qator omillarini ko'rsatishimiz mumkin. Avvalo shuki, o'quvchi ommaning aksariyati adib-u shoirlar haqida ularning asarlaridan kelib chiqib tasavvur hosil qiladi: muallif obrazi bilan adib, lirik "men" bilan shoir orasiga tenglik alomati qo'yadi. O'quvchining ko'zi o'z tasavvuridagi shoir-u adib qiyofasiga o'tirishmaydigan chizgiga tushganida, ko'ngli "Nahotki?" deya isyon qiladi – uni qabul qilishni istamaydi"¹⁷.

Biografik metodning ilmiy-nazariy asoslari bu- ijodkor shaxsning asarlari va biografiyasining mos ya'ni muvofiq kelishi nazarimda. Chunki, o'quvchida shundagina ijodkor asarlari va biografiyasini o'qib o'rganganda yuqorida D.Quronov ta'kidlaganidek "Nahotki?" degan savol tug'ilmaydi. Ayrimlar ijodkor biografiyasi muhim emas, kitobxon yoki o'quvchi uning asarlarini o'rgansa shuni

¹⁶Qur'onov D. Surat va siyrat // Vatan. – 15-22 avg. – 24(166) – son.

¹⁷Qur'onov D. Surat va siyrat // Vatan. – 15-22 avg. – 24(166) – son.

o‘zi yetarli degan fikrlarni aytadi. Men bu fikrlarga unchalik ham qo‘shilmayman. O‘quvchi asarni o‘qiganida uning qanday inson tomonidan yozilayotganligini bilishi kerak. Ijodkor hayoti va uning asarlarini taqqoslashi kerak. “Balki asardagi bosh qahramon ijodkorning o‘zidir, balki uning boshiga ham shunday kunlar tushgandi” kabi savollarning o‘quvchi ongida charx urishi asarning chinakam muvaffaqiyati shu menimcha. Endi albatta bu metodikada biografiyaning o‘rganilishi o‘quvchining yosh xususiyatiga ham bog‘liq. Ijodkor biografiyasiga oid ayrim ma‘lumotlarni o‘quvchilarga yosh xususiyatidan kelib chiqib aytgan yaxshi. Masalan, Alisher Navoiy hayoti haqidagi qarashlardan birida uning Husayn Boyqaroning rafiqasini sevib qolganligi keltirilgan. Bu va shunga o‘xshash ma‘lumotlarni 5-6-sinf o‘quvchilariga aytish ularda shoir shaxsiga nisbatan noto‘g‘ri tasavvur va hurmatsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu kabi ma‘lumotlarni aytish shart emasdir deb o‘ylash mumkindir. Ammo shoirning ba‘zi she‘rlarini tahlil qilganda bu kabi ma‘lumotlarni aytmalikning iloji yo‘q. Chunki g‘azalni tahlil qilish, sharhlash lozim.

Yana biografik metodning ko‘plab nazariy va metodik jihatlarini sanab o‘tsa bo‘ladi. Buning uchun keyingi boblarimizda alohida to‘xtalib o‘tamiz.

1.2. Yozuvchi biografiyasining adabiy asarga ko‘chishi

Adabiyot inson ma‘naviyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan ham u inson ruhiyati va tuyg‘ular olamini sezguvchi jarayon. Ana shu inson tuyg‘ulari bilan munosabatga kirishuvchi ijod, aslida, ilohiy ne‘mat hisoblanadi. Shu sababdanmi, ijod baxti har kimga ham nasib qilavermaydi. Umuman, ijod inson ruhiyati va tuyg‘ulari bilan bog‘liqdir. Uning zamiridagi ruhiy holatni ilohiy deyishga asos bor. Chunki ijodning qudrati inson hayotini oldindan bilishga qodir. Bu narsani bashorat qilish so‘zi bilan tavsif etsak-da, kundalik hayotda, ya‘ni ijodkorlar hayotida kuzatilgan. Masalan, Baris Pasternakning Yevgeniy Yevtushenkoni: “She‘rlaringizda o‘zingizning fojiali o‘limingiz to‘g‘risida bashorat ilmang. So‘zning qudrati shunday bo‘ladiki, o‘zingiz

sezmagani holda o'sha bashorat tomon yaqinlashib boraverasiz" – deb ogohlantirishida muyyan haqiqat bor edi. Xuddi Yevgeniy Yevtushenko kabi Muxtor Shoxonov ham o'z taqdiridan bashorat qildi: "Qo'rqqanim bor, nogoh baxtda yashirin Rahmsizlik bilmaysan, taqdir ishin", degan misralarida, ilk muhabbatning shirin va sehrli lahzalaridan ilhomlangan shoir-sevgilisi Kulyondagi fojiali o'limiga ishorat bor ekanligini bilmasdi. Aslida, bu bag'ishlov ular o'rtasidagi muhabbat rishtalarining uzilib ketishidan darak edi. Buni go'zal va dono Kulyonda qalban his qilib, bu she'ringiz kishini qayg'u solib qo'yadi, nazarimda, she'r birga bo'lolmasligimizdan, ayriliq nishonasiga o'xshaydi, deydi qayg'u bilan. Kulyonda ham bu mudhish voqeani sezgan edi.

Ko'ramizki, so'z qudrati, ijod qudrati yozilayotgan asar bilan cheklanmaydi. Inson o'zi bilmagan holda ijodning ilohiyotga qodirligini ham ko'rsatdi. Ijodkor o'z hayotining yorug' tomonlari biln bir qatorda fojiasini ham asarga singdiradi. O'z ruhiy olamini, xarakterini, holatini, boringki, jismini qahramonlari olami bilan uyg'unlashtirib boradi. To'g'ri, bu jarayon yozuvchi asarlariga birdan , butunligicha singdirilmaydi, balki kichik detallar shaklida namoyon bo'lib boraveradi. Shu tarzda yozuvchining ijodiy biografiyasi mukammal shklga kiradi.

O'zbek adabiyotida biografiyasini asarga ko'chirgan yozuvchi va adiblar talaygina. Bunga misol qilib Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Oybekning "Bolalik", Odil Yoqubovning "Muzqaymoq", G'afur G'ulomning "Shum bola" kabi asarlarini keltirish mumkin. Nafaqat yuqoridagi asarlarda balki, har bir yozuvchi o'zining har bir asarida o'z hayotidan, o'z biografiyasi holatini aks ettiradi busiz iloji yo'q. Hech bo'lmasa asarning bir qahramonida yozuvchining o'z meni yashaydi. Masalan, Abdulla Qodiriyning mashhur va el suygan romani "O'tkan kunlar" romanida Otabek obrazi Qodiriyning prototipi degan qarash mavjud. Haqiqatdan ham yozuvchi xarakteridagi o'ziga xos jihatlarning Otabek obrazida yaqqol namoyon bo'lganini sezish qiyin emas nazarimda. Yozuvchi biografiyasining badiiy asarga ko'chishi to'lig'icha asarda o'z hayotini aks ettirish mushkul lbatta. Asarda badiiy to'qimalar, voqealar, obrazlar va detallarni birmuncha o'zgartiradi va o'zidan kiritadi.

Ijodkor asar yozayotganida, asosan, hayot faktlariga, ijtimoiy-siyosiy o'zgrishlar mantig'iga suyanadi. O'zi yashab turgan muhit, voqea-hodisalar haqida falsafiy mushohada yuritib, insonlar ruhiyatini o'rgansihga psixologik naqtai nazardan yondoshadi. Aynan shunday holatlar, kuzatishlar, davrning ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettirish ko'pchilik yozuvchilar ijodida keng o'rin tutadi.

Har bir ijodkorda bo'lganidek, asar yaratayotganda xoh u she'r bo'lsin xoh hikoya yoki roman nimadir yozishidan qat'iy nazar unda baribir ijodkorning "Men"i yashaydi. Ko'pchilik kitobxonlar badiiy asarni o'qiyotgan paytda ko'pincha asardagi bosh qahramonni yozuvchining o'zi deb tasavvur qilishadi. Bu fikr birrovga bo'lsa-da hammaning xayolidan o'tishi tabiiy. Bosh qahramonning boshidan o'tgan voqealar, uning shaxsiyatini, xarakterini ham yozuvchining o'zini ko'rganday bo'lishadi. Masalan, oddiygina bir misol adabiyotimizda o'z o'rniga ega bo'lgan mashhur asarlardan biri "O'tkan kunlar" romanini o'qiganimizda ham Otabek timsolida Abdulla Qodiriyning ko'ramiz. Bu narsani ko'plab adabiyotshunoslar ham ta'kidlab o'tganlar. Endi bu "O'tkan kunlar" romani biografik asarlar sirasiga kirmasa ham, baribir asarda yozuvchining hayoti aks etgan, Abdulla Qodiriyning aynan hamma voqealar boshidan o'tmagan bo'lsa ham, baribir asarda Otabek yozuvchining o'zi degan fikrlar mavjud menimcha ham bu fikrlar haqiqatga yaqin.

Biografik asarlar deb yuqorida ko'plab asarlarni sanab o'tdik. Bir adabiyotshunos olim aytgan ekan: "Yozuvchi asar yozayotganda o'zining qalbidan, boshidan o'tgan kechinmalarni, voqealarni yozmas ekan u kitobxon qalbidan ham joy ololmaydi". Bu fikr ham asosli. Haqiqatdan ham hamma yozsa bo'ladi, lekin qalbdan chiqqan so'zlargina qalblarga yo'l oladi. Bu bilan asar yozish hammaning qo'lidan keladi degan fikrdan yiroqmiz, unaqada hamma yozuvchi bo'lardi. Boshidan o'tgan narsani qog'ozga tushirgan kishi borki, yozuvchiga aylanardi. Yozuvchining yozuvchiligi ham shunda, u hamma qatori emas, boshidan o'tgan voqealarni oddiy xabar shaklida emas, balki badiiy ifodalar bilan inson qalbiga

yetib boradigan darajada mohirlik bilan yozadi shuning uchun ham u biografik asar bo‘ladi kundalik daftar yoki xotira daftari emas.

Odil Yoqubovning “Muzqaymoq” hikoyasini olaylik. O‘sha paytlarda hammaning boshidan o‘tgan voqealar. Ko‘p eshitganmiz, ko‘rganlardan tinglaganmiz. Lekin yozuvchi hikoyadagi voqealarni haqqoniy ko‘z oldimizda gavdalandiradi. Badiiy ifodalar bilan kitobxonni hikoya ichiga olib kiradi. Hikoya boshida yozuvchi otasi qattiqqo‘l, qo‘pol, odamovi kishi sifatida gavdalanadi. Ammo hikoya oxirida bolasiga bir bor muzqaymoq olib berolmagani uchun nadomat chekkan otaning bir og‘iz gapi qahramon haqidagi tasavvurlarni butunlay o‘zgartiradi. Hikoyada yozuvchi o‘zining yoshligini ya’ni o‘z hayotini tasvirlagan. Maktab darsliklarida beriladigan bu hikoya yozuvchining o‘z hayotidan olinganligi uchun ham o‘zgacha qiziqish bilan o‘qishadi. Bu ayni haqiqat. Shu hikoyani o‘qigandan keyin o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazganda hamma o‘quvchilar shu hikoyaning qahramonlari haqida bahs yuritib yan kamiga o‘zlari bilan taqqoslab qo‘yadilar. Bu yaxshi holat, albatta. Umuman asar kitob o‘qimaydigan bola ham o‘zi o‘tirib o‘qimasa ham sinfdoshlari shu hikoya haqida gapirganda qiziqib keyin bir umr eslarida qolib ketganiga guvoh bo‘lganman.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasini hammamiz sevib o‘qiganmiz. Onalarga bag‘ishlangan bu asar kitobxonlar tomonidan hamon sevilib o‘qib kelinmoqda. O‘tkir Hoshimovning ushbu asari kichik-kichik hikoyalardan iborat bo‘lib unda yozuvchining bolaliligidan tortib yo asar yozayotgan paytdagi vaqtgacha bo‘lgan voqealar aks etgan. Asarda yozuvchining bolaligida yuz bergan qiziqarli voqealar, onasi haqidagi ta’sirli hikoyalar kishini beixtiyor o‘z hayoti ya’ni o‘z onasi haqida o‘ylashga majbur qiladi.

Hozir biz faqatgina nasrda yaratilgan biografik tipdagi asarlarni ya’ni yozuvchi biografiyasining badiiy asarga ko‘chishi haqida fikr yuritdik. Bu haqda juda ko‘p gapirish, yana ko‘plab mashhur yozuvchilarning asarga ko‘chgan hayoti haqida gapirishimiz mumkin. Lekin men hozir faqat nasrda emas nazmda ham o‘z hayotini, tuyg‘ularini singdirgan ijodkorlar haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Biografik metod haqida fikr yuritib, U.Jo‘raqulov shunday deydi: “Biografik metod mohiyatida inson shaxsiyati turadi... Ushbu metod ijodkor biografiyasidan faqat axborot manbai sifatida foydalanmaydi, balki bunda ijodkor biografiyasi bir butun tizim o‘laroq, ijod mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bu shunday tizimki, ichki strukturasi jihatidan ko‘plab mukammal tizimlarni o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, ijodkor hayoti va faoliyatini atroflicha qamrab olishga qaratiladi”.

Naim Karimovning “Cho‘lpon” va “Maqsud Shayxzoda” ma’rifiy romanlarida ularning hayot yo‘li ijodlarini ochishda ochqich vazifasini o‘tagan. Jumladan, “Cho‘lpon” romanidagi biografik yondashuvning asoslaridan biri shoir tarjimai holining uning ko‘ngli kechinmalari badiiy ifodasi bo‘lgan she’rlari mazmunidan kelib chiqib talqin qilinganida ham ko‘rinadi. Misol uchun, “Shu kunda” nomli she’ri talqini vositasida “Cho‘lponning Obida-Kleopatraga bo‘lgan muhabbati tarixi” (104-bet) muallif tomonidan aniq sanalardagi shoirning ruhiy holati, chekkan iztiroblarini kitobxon ko‘z oldida gavdalantiradi. Davr manzaralariga oid lavhalarda esa, Cho‘lponning yaqin kishilari xotiralariga tayanib, Naim Karimov shoir biografiyasining eng muhim nuqtalarini izchil kuzatadi. Xususan, roman muallifi Cho‘lponning mashhur “Go‘zal” she’ri yaratilishi tarixini va bu klassik asar mazmun- mohiyatini chuqur tahlil qiladi. Ma’lumki, bu asar haqida turli-tuman talqinlar mavjud. Chunonchi, istiqloлга erishgandan keyingi davrda cho‘lponshunoslar “Go‘zal” she’riga shoir ozodlikni, hurriyatni go‘zal, sohibjamol qizga mengzab kuylagan degan fikrni aytib kelishdi. Naim Karimov esa bunday fikrga ishtiboh bilan qarab, “Nahotki, Cho‘lpon bolsheviklarning matbuotga qadalgan ko‘zlari hali hushyor tortmagan 1919-yilda milliy istiqloл haqidagi orzularini shunday pardalarga o‘rashga majbur bo‘lgan bo‘lsa?!” (124-bet), deya ikkilanadi¹⁸. Bunday ikkilanishda haqiqat mavjudligini ikki jihatdan aniq ko‘rish mumkin. Birinchidan, chindan ham Cho‘lpon “Go‘zal” she’rida, ayrim adabiyotshunoslar talqin etganidek, istiqloл bilan bog‘liq orzu-umidlarini tabiat unsurlari timsolida, pardalab berishga majbur

¹⁸Karimov D. Cho‘lpon (ma’rifiy roman). – T., Sharq. 2003.

bo‘lmagan. She‘r yozilgan 1919-yilda bunday orzu-niyatlarni hali oshkora aytish imkoni bo‘lgan. Ikkinchidan, Naim Karimovning “Go‘zal” she‘ri yozilishi tarixi bilan bog‘liq xotiralardan keltirilgan parchalar ushbu asarni ishqiy lirika namunasi sifatida qabul qilish to‘g‘ri ekanligiga ishonitiradi. Mazkur she‘rning tug‘ilish jarayoni – shoir qalbida kechgan oniy porloq lahzalarga shohid kishilarning e‘tiroflari roman muallifining talqinini asoslaydi. Cho‘lpon ijodining ilk yillaridayoq jadidchilik va ma‘rifatparvarlik harakatlarik g‘oyalarini astoydil o‘zlashtirganini va ijodida shu g‘oyalarni tarannum etganini muallif Naim Karimov shoir biografiyasi orqali izohlab beradi. Ayni shu yilda, “Sho‘ro” jurnalida chop etilgan Cho‘lponning “Umid” she‘ri haqida ham shunday ma‘lumotlarni keltirish mumkin. Muallif bu she‘rga ham izoh berib, uning shoir ijodining ilk yillarida chop etilganini, uning “Orenburgda chop etilgan nashrda, buning ustiga “Qalandar” imzosi bilan bosilgani”(60-bet), shoirning Toshkentga ko‘chib kelib, shu yerda istiqomat qilayotganligi ham shu she‘r orqali dalillab beradi. Cho‘lpon ijodidagi ko‘pgina she‘rlardagi mazmuni va sababni adabiyotshunos Naim Karimov shoirning biografiyasidan izlaydi va izohlaydi. Uning she‘rlari va asarlarining mavzu ko‘lamini shoir biografiyasidan qidiradi. Cho‘lponning 1921-yilda Toshkentdan Buxoroga ko‘chib borishi va bu hol uning toshkentlik birodarlarining “mish-mish”lariga sabab bo‘lganini, uni qochoq deb ta‘na qilganlari haqida dardi-hol qilingan “Men qochmadim” she‘ri ham sof biografik xarakterga ega. Bu she‘rni muallif har tomonlama chuqur izohlab, she‘rning mish-mishlarga izoh tariqasida yozilganligini ko‘rsatib beradi. Shoirning “Og‘riganda” she‘ri esa uning 1921-yilda xastalanib harbiy kasalxonaga tushgani va bu kasallikning bir oydan ortiqroq vaqt davom etganligi haqida xabar beradi.

Og‘riq qoldi, qayg‘u qoldi, zor qoldi,

So‘nuk ko‘zli, bag‘ri ezik yor qoldi...

Buni ham Naim Karimov shoir haqidagi arxivlardan izlab topadi va she‘rning haqiqiy mazmunini yoritib berishda foydalanadi¹⁹. Ba‘zilar aytganidek, “o‘zini otmoqchi ham yoxud kimningdir o‘qidan yarador ham bo‘lgan emas”ligini

¹⁹ Karimov D. Cho‘lpon (ma‘rifiy roman). – T., Sharq. 2003.

(155-bet) aniq faktlar bilan isbotlaydi. Unda ham Naim Karimovga biografik metod yordamga keladi.

Biografik metodning ahamiyatga molik, muhim jihati shundaki, u orqali shoir yoki yozuvchi asarlari yoki she'rlari orqali uning hayoti haqida to'liq, batafsil ma'lumotga ega bo'lamiz.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, nasrda ikkita adib ijodini tahlil qildik, nasrda ijod qilgan shoirlardan ham ikkitasini obyekt sifatida tanlaganmiz. Yuqorida sho'ro shoiri Cho'lpon ijodi orqali uning hayotini tahlil qilgan bo'lsak, endi mustaqillik davrining eng mashhur shoirlaridan biri Muhammad Yusuf she'rlari orqali uning hayotini biografik metod orqali tahlil qilamiz.

O'zbek she'riyatida mashhur shoirlar ko'p,ularning son-sanog'i yo'q desak ham adashmagan bo'lamiz. Ammo shunday shoirlar borki, ularni xalq shoir qigan,ularni o'zidan avval she'rlari tanilgan.

Shunday shoirlardan biri Muhammad Yusufdir. Hech bir xonadon yo'qki Muhammad Yusuf she'rlari kirib bormagan xonadon, uning she'rlarini yod olmagan kishi bo'lmasa kerak, bunga shak-shubha yo'q. "Gap isboti bilan" – degnalaridek amaliyot davrimizda rus guruhlariga dars o'tdik. Guruhlarda turli millat vakillari: qozoq, qirg'iz, koreys,xitoy,afgo'n, eron va yana ko'plab millat vakillari tahsil olar ekan. Dars jarayonida o'zbekcha she'r aytimg deganimizda, o'zbekchani eplab gapirolmaydigan (umuman bilmaydi desak to'g'riroq bo'ladi) o'quvchilar Muhammad Yusuf ijodidan bir nechta she'r aytganida hayron qolganman to'g'risi. O'zbek o'quvchilarini aytmasa ham bo'ladi. Muhammad Yusuf ijodi bo'yicha bahr-u bayt uyushtirganimizda,g'olibni aniqlolmay halak bo'ldik. To'g'risi amaliyot davrida Muhammad Yusuf xalqimiz qalbidan qanchalik joy olganligini anglab yetdim.

Endi shoir hayotiga to'xtaladigan bo'lsak, Muhammad Yusuf 1954-yilning 26-aprelida Andijon viloyati, Marhamat tumani, Qovunchi qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga kelgan. Muhammad Yusuf bolaligidan adabiyotga mehr qo'ygan. U Rus tili va adabiyoti institutini 1978-yilda tamomlagan. Muhammad Yusuf 1978-1980-yillarda Respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980-1986-

yillarda “Toshkent oqshomi” gazetasida, 1986-1992-yillarda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyatida, “O‘zbekiston ovozi” gazetasida ishladi. Umrining so‘nggi yillarida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi vazifasini bajardi. U 1998-yili O‘zbekiston Xalq shoiri unvoni bilan taqdirlangandi. Shoir 2001-yil 31-iyulda 47 yoshida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Ellikqal’a tumanida vafot etdi. O‘shandan beri oradan necha yillar o‘tgan bo‘lsa-da, shoir lirik merosi va lirik qahramoni tabiatiga bo‘lgan qiziqish zinhor so‘nmadi. Bugungi kunda Respublikamizda Muhammad Yusuf jamg‘armasi faoliyat olib bormoqda. Uning raisasi shoirning rafiqasi Nazira as-Salomdir. Uning she’rlari bugungi kungacha o‘quvchilar tomonidan sevib o‘qilmoqda.

II BOB YOZUVCHI IJODINI O‘RGANISHDA BIOGRAFIK METODNING IFODALANISHI (NASR VA NAZM TIPIDAGI ASARLAR MISOLIDA)

2.1. Biografik metodning tahlil namunalari Abdulla Qahhor ijodi misolida.

Adabiyot inson ma'naviyatini yuksaltirish uchun xizmat qiladi. Shu sababdan ham u inson ruhiyati va tuyg'ular olamini sezguvchi jarayon. Ana shu inson tuyg'ulari bilan munosabatga kirishuvchi ijod, aslida, ilohiy ne'mat hisoblanadi. Shu sababdanmi, ijod baxti har kimga ham nasib qilavermaydi.

Umuman, ijod inson ruhiyati va tuyg'ulari bilan bog'liqdir. Uning zamiridagi ruhiy holatni ilohiy deyishga asos bor. Chunki ijodning qudrati inson hayotini oldindan bilishga qodir. Bu narsani bashorat qilish so'zi bilan tavsif etsakda, kundalik hayotda, yani ijodkorlar hayotida kuzatilgan.

Biografik metodning tahlil namunalari sifatida yuqorida ham bir qancha misollar keltirib o'tdik. Endi esa mavzuni yanada yaxshiroq yoritish uchun biografik metodning tahlil namunalari Abdulla Qahhor ijodi misolida berib o'tmoqchimiz.

Ma'lumki, Abdulla Qahhorning ilk ijodiy oq olimlar va munaqqidlar e'tiborini tortgan edi. Umuman, Abdulla Qahhor ijodi tanqidchilarni sermahsul ishlashga da'vat etdi, desak xato qilmagan bo'lamiz. H.Abdusamatov, U.Normatov, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov kabi olimlarning yozuvchi ijodi haqidagi asarlarida munozarali o'rinlar oz emas va o'z navbatida adib adabiy portretining muayyan badiiy tasvirini bera oladi. Lekin bu adabiy talqinlarning bir tomoni borki, u ham bo'lsa, ko'p bora ta'kidlaganimizdek, sobiq sho'ro

siyosatining kuchli ta'siri yaqqol sezilib qolgan. Bizning tanqidchilarimizga ayb taqash niyatimiz yo'q. ammo bugungi hayot qabul qila olmaydigan jihatlarni aytib o'tish joiz.

Abdulla Qahhor biografiyasidagi munozarali o'rinlar bir necha savollarni ko'ndalang qo'ymoqda. Adib biografiyasini yaratishda qanday tamoyillar ustuvorlik qilgan? Ijodkor hayotining qaysi qirralariga ko'proq e'tibor qaratilgan? Uning biografiyasiga hayotining qaysi fasllari kirmay qoldi? Shu savollarga javob berish maqsadida adib hayotiga aloqador bo'lgan va uning biografiyasiga kiritilmay qolgan ayrim holatlar haqida to'xtalsak.

Adabiy jamoatchilik 90-yillarga qadar Abdulla Qahhorni Qo'qon shahrida tavallud topgan deb e'tirof etar edi. Bu haqda adib hayoti va ijodini o'rgangan H.Abdusamatov, I.Borolina, V.Smirnova, M.Qo'shjonov, S.Mirzayev, M. Sultonova, P.Qodirovlar yozgan. Adibning o'zi ham tarjimai holida: "Men 1907-yil kuzda chorshanba kuni - 17-sentyabrda Qo'qonning Ko'mir bozori mahallasida tug'ilganman", - deydi²⁰.

Abdulla Qahhorning tug'ilgan joyi masalasida keltirilgan iqtiboslar munozarali. Negaki, A.Qahhorning o'zi Qo'qonda tug'ilganini yozsa-yu, munaqqid O.Sharafiddinov va ashtlik N.Amoniy bunga qarshi da'vo qilsa! Harholda, bu munozaralarga biz ham o'zimizning fikrimizni bildirishni joiz deb bildik. Birinchidan, yozuvchining o'zi tarjimai holida Qo'qonda tug'ilganini yozadi. Bu biz uchun eng ishonchli fakt. Ikkinchidan, O.Sharafiddinov ustozini Ashtda tug'ilgan deya fikr bildirar ekan, bunga ishonchli bir dalil keltirmaydi. Bu esa O.Sharafiddinov fikriga nisbatan ikkilanish paydo qiladi.

Mazkur "jumboq"ning yechimini biz adibning "O'tmishdan ertaklar" nomli asari yordamida topishga urinib ko'ramiz. Ushbu asar 1965-yil e'lon qilingan. Muallif muqaddimada kitobxonlarning ba'zi e'tirozlarini inobatga olib: "...Mana shunaqa ta'na-dashnomlardan keyin "uydirmachilikka" berilmasdan, o'z ko'zim bilan ko'rganlarimni, kechirganlarimni, o'tmish hayot lavhalaridan esimda

²⁰O'zbek tili va adabiyoti masalalari. – T., 1960. – B. 1.

qolganlarini qalamga olgim kelib qoldi”²¹ – deydi. Yozuvchining yuqoridagi gapiga asoslansak, Abdulla Qahhor bolalik yillarini Farg‘ona vodiysining Yaypan Nursuq, Qudash, Buvayda, Tolloq, Olqor, Yulg‘unzor, Oqqo‘rg‘on kabi qishloqlarda o‘tkazgani ma‘lum bo‘ladi. Bu asarda tug‘ilgan qishlog‘i yoki mahallasi haqida gap yo‘q. “Uydirmachilik” deganda adib shu masalani ham ko‘zda tutmaganmikan? Yozuvchi “O‘tmishdan ertaklar” asarida keltirgan haqqoniy faktlarga suyansak, O. Sharafiddinov va N.Amoniyning da‘vosi haqiqatga yaqinga o‘xshaydi. Biroq Abdulla Qahhorning gapini inkor etib, yozuvchi Ashtda tug‘ilgan deyish uchun ham asosli dalil yo‘q.

Abdulla Qahhor “O‘tmishdan ertaklar”da oilasining “kelgindi” bo‘lib, ko‘p joylarga ko‘chib yurishiga otasining tabiatidagi bo‘yin egmaslik asosiy “bahona” ekanligini aytib o‘tgan. Yozuvchining otasidagi g‘ayritabiiy odatlar, atrofdagilarga nisbatan ko‘proq yangilini o‘ziga singdirgani, shuningdek, ko‘p narsalarni ildam fahmlay olishi – odamlar bilan tafovutning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Masalan, usta Yaypandan “shayton arava” sabab, Qudashdan To‘raqul vofurushga qo‘l ko‘targanlikda ayblanib, Buvaydadani ro‘za tutmagani uchun haydaldi. Usta Abduqahhor oilasini qaysi qishloqqa ko‘chirmasin, tirikchiligini hamma qatori tebratdi. Hatto, usta Yaypandagi Qo‘shariq mahllasida yashagan vaqtlarida “Zingerli boy” nomi bilan mashhur bo‘ladi. Usta hunarmand kishi edi. Shu hunari bilan bemalol bir joyda yashab tirikchilik kechirishi mumkin edi. Shu sababli biz bu oilaning hayotiga usta Abduqahhorning tabiatiga pand berganini ko‘ramiz.

Bu darbadarliklar Abdulla Qahhorning xotirasida o‘chmas iz qoldirgan. Adib keksaygan chog‘larida ham ushbu xotiralarni bot-bot esga oldi. Keyinchalik xayoliy orziqish, tahqirli o‘tmishi “O‘tmishdan ertaklar”ni dunyoga keltirdi.

Usta Abduqahhorning ko‘chib yurishi yosh Abdullaga qayg‘uli xotiralar bilan birga unutilib bo‘lmas taassurotlar ham qoldirdi. Yaypanda uni dadasi ro‘za kunlari bozorshabga olib borgandi. Bozorshabda Abdullaning e‘tiborini “bir dona karnaygul” tortdi. Bu “gul” uni juda qiziqtirib qo‘ydi: “Men “moshina – qo‘shiq” deb eshitganman, lekin o‘zini ko‘rmagan edim, moshina – qo‘shiqqa tikilganimcha

²¹Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar: 5 Tomlik . – T., Adabiyot va san’at, 1988. – B. 189.

qoldim”²². Baqamushak, sixmushak voqealari, turli xil o‘yinlar: loyporsildoq, yashin topoloq, tutmindi, dasta, to‘ppi tepish, oq terakmi –ko‘k terak o‘yinlari yozuvchining shirin xotiralari bo‘lib qoldi. Qahhorshunos Ozod Sharafiddinov aytib o‘tganidek, “...bozorshablar, sayillar, hayitlar bolaning bir maromdagi hayotini chayqatib, unga bir dunyo zavq-shavq berishidan tashqari, uning ko‘z o‘ngida hayotning turli-tuman ajoyibotlarini, aql bovar qilmaydigan sir-u asrorini ham namoyon qiladi”²³.

Yosh Abdulla o‘ta sinchkov, zehqli bo‘lgan. Shu sababli uning bolalik xotiralari umrbod muhrlanib qoldi. U otasini tinib- tinchimas inson sifatida, hamisha mehnatda ko‘rdi. Dadasining oilada ham, ishda ham o‘z mehnatiga, kuchiga ishongan inson ekanligini kichkina Abdulla bolalik qalbi bilan kuzatdi. Biroq dadasi juda qaysar, o‘z qadrini toptashga yo‘l qo‘ymaydiganlar xilidan edi. Buvaydada yashagan vaqtlarida yuzboshi ikkita jodini uyiga olib borishini buyurib, sensiraganida ustaning g‘azabi qaynadi, hech tap tortmasdan: “Odam yuboring, chaqasini tashlab olib ketsin”²⁴ –dedi. Ustaning shunday deyishga jur‘at etgani yosh Abdullaning ko‘z o‘ngida sodir bo‘lgan va bu voqea uning xotirasida mixlanib qolgan edi.

Shuningdek, usta Abduqahhorning boshqalarda bo‘lmagan duoxonligi-yu kitobxonligi, ilmi amaldan xabardorligi Abdullaga katta ta’sir ko‘rsatgan. Yosh Abdulla uchun dadasining hayoti katta maktab bo‘ldi, desak o‘rinli bo‘ladi. Usta Abduqahhorning g‘alati tabiati o‘g‘lining ongini shakllantirdi. Yozuvchining xarakterida keyinchalik ham otasiga xos xislatlar aks etib turdi. Harqalay, usta o‘g‘lining temirchi bo‘lishini xohlamas edi. Ustaning niyati butunlay o‘zgacha – o‘g‘lini yangicha ruhda tarbiyalash, o‘qitish edi.

Abdulla Qahhorning turmush o‘rtog‘i Kibriyo Qahhorovanning guvohlik berishicha, Abdulla Qahhorning yaqin qarindoshlari bo‘lmagan. Biroq bu e’tirof anchayin e’tirozli. Abdulla Qahhor yolg‘iz farzand. Lekin adibning “O‘tmishdan ertaklar”da yozishicha, uning Abdurahmon degan amakisi, 2ta ammasi bor.

²²Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar: 5 tomlik. – T., Adabiyot va san’at, 1988. – B. 194.

²³Sharafiddinov O. Abdulla Qahhor/Esse/ - T., Yosh gvardiya, 1988. – B. 9.

²⁴Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar: 5 tomlik. – T., Adabiyot va san’at, 1988. – B. 239.

Amakisining Sarviniso, G'afforjon degan farzandlari, kichik ammasining esa O'lmasoy, Mukarram degan qizlari, katta ammasining Saidakbarxon otlig' o'gay o'g'li bo'lgan va ular bir-biridan xabar olib turishgan. Bu narsa ham uncha haqiqatga yaqin emas, menimcha. Chunki, ushbu ma'lumotni adibning eng yaqin, suyangan kishisi, rafiqasi bermoqda. To'g'ri yaqin qarindoshlari bo'lgandir, lekin bordi-keldi uncha ko'p bo'lmaganligini nazarda tutib yaqin qarindoshlari yo'q deyayotgandir. Yanayam kim biladi?!

Usta Abduqahhorning hayoti mobaynida bosib o'tgan qiyinchiliklari, tashvishlrini yuvib ketadigan quvonchi bu – yolg'izgina farzandi Abdulla edi. Shuning uchun uni ilmi qilishga orzumand bo'ldi. Dastlab Abdullani eski usuldagi maktabga - Valixon so'fi qo'liga "suyagi meniki, eti sizniki" deb topshirdi. Lekin bu yerdagi o'qish natijasiz bo'lgani uchun usta o'g'lining savodi bilan o'zi shug'ullandi.

Oqqo'rg'onga ko'chib borgach usta o'g'lini qo'qonlik Muhammadjon qori degan kishining "usuli jadid" maktabiga berdi. Shu bilan yosh Abdullaning hayotida katta o'zgarishlar boshlandi. Ushbu "usuli jadid" maktabi eski maktab hujrasidan farq qilar, bu yerda bolalar taxta partalarda o'tirib, dars tinglashardi .

Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asaridan olingan yuqoridagi ma'lumotlar Abdulla Qahhorning hayotidan hikoya qiladi. Haqiqiy biografik tipdagi asarlar sirasiga kiruvchi bu asarda Abdulla Qahhor deyarli hech qanday to'qimalarsiz o'zining boshidan o'tgan voqealarni hikoya qilib beradi. Bu asar adibning umri oxirrog'ida yaratilgan asarlardan biri bo'lgani uchunmi, yoki o'sha bolaligi o'tmishda ertak kabi qolib ketganiga ishora qilibmi asar nomini "O'tmishdan ertaklar" deb nomlaydi. Asar Abdulla Qahhor hayotidan hikoya qiluvchi hamda uning ijodining eng go'zal jihatlarini o'zida aks ettirgan asarlaridan biri sifatida adib ijodida alohida o'ringa ega. Yana Abdulla Qahhor hayotidan hikoya qiluvchi bu asardan tashqari adibning bilim yurtida o'qib yurgan paytidan xabar beruvchi – "Qo'shiqlar" daftari ham adabiyot ahli uchun juda muhimdir. "Qo'shiqlar" daftari O'zbekiston, vatan, ozodlik mavzularidagi qo'shiq va marshlardan iborat. Bu daftar 43 varaqdan iborat bo'lib, hamma sahifalari

hoshiyalangan va gullar chizilgan. Chiroyli husnixatda ozodlik, vatan, Turkistonni madh etuvchi jangovar, to‘lqinlantiruvchi ruhdagi marshlar, sharqiylar bitilgan. Dorilmuallimin talabalari bu turkey marshlarni jo‘r bo‘lib aytishgan. Hammamizga ma’lumki, Abdulla Qahhor asarlar yozishdan tashqari she’rlar ham mashq qilib turgan. Uning bizga ma’lum bo‘lgan ilk adabiy mashqi “Mushtum” jurnalida chop etilgan. Bu “Oy kuyganda” she’ri edi:

Chiqdi shaharda bala-bo‘m,
Turli tuman nog‘oralar,
Uch ming ketmon egri bo‘lib,
Mingta qozon sindi, voyov!
Har ko‘chada dod-u fig‘on,
Tomga chiqib aytib azon,
Tovuqlarga keldi qiron,
Tomoshalar bo‘ldi vo yov!...

Abdulla Qahhor “Norin shilpiq” taxallusi bilan adabiy jamoatchilikka tanildi. U 1924-1925-yillarda o‘qish, ijod qilish bilan bir qatorda Qo‘qon shahar komsomol komitetida faoliyat ko‘rsatdi. Ishimizda Abdulla Qahhorning asarlari orqali uning bolaligi va o‘qish davrini ozgina fikr yuritdik. Bunga sabab esa adibning ilhomlantirgan va ijod qilishga undagan o‘sha paytlar ya’ni biografiyasi adibning ijodida alohida o‘ringa ega.

1929-yilda Abdulla Qahhor ishchilar fakultetini tugatgach, Qo‘qonda bir yil ishladi, so‘ngra o‘qishni davom ettirish maqsadida yana Toshkentga keldi. 1930-yilda Pedagogika institutiga o‘qishga kirdi. 1931-yil 25-apreldagi sud hukmi bilan esa Abdulla Qahhor 5yilga ozodlikdan mahrum etildi.

Lekin Abdulla Qahhorning belgilangan qamoq jazosini o‘tagani haqidagi materiallar uchramaydi. Shunday bo‘lsa edi, uning ijodi butkul to‘xtagan bo‘lar

edi. Ehtimol, “Sarob” romani ham yozilmas edi. Haqiqatda esa buning aksi bo‘ldi. Yozuvchi aynan shu yillari samarali ijod qildi.

Munaqqid Rahmon Qo‘chqorning e’tirof etishicha, Abdulla Qahhor 1929-yilda “Botir gapchilar” to‘garagi a’zolari bilan birgalikda aybdor sifatida bir muncha vaqt qamalgan. Adibning rafiqasi Kibriyo Qahhorovanning aytishicha, 30-40-yillar o‘rtasida (qaysi yilligi aniq emas) adib 6 oy turmada yotgan. Yozuvchi hayotining shu davriga oid manbalar esa juda kam. Mana shu vaqt mobaynida yozuvchining boshidan ne musibatlar o‘tgani bizga qorong‘u. Lekin Abdulla Qahhor ruhan azoblangani va ma’naviy jihatdan ezilganiga shubha qilmasak ham bo‘ladi. (Harholda, yozuvchining 1959-yilda yoza boshlagan, lekin tugatilmay qolgan “Zilzila” qissasi qahramoni Sobir Salimning qamoq azobini boshdan kechirishi, A.Qahhorning 30-yillardagi hayoti bilan monand bo‘lishi mumkin). Biz faqat shuni ishonch bilan ayta olamizki, endi yozuvchi ancha ehtiyotkor bo‘lib qoladi.

Yozuvchi hayotining so‘nggi yillarida “Ayajonlarim” komediyasini yaratdi. Bunda, asosan, oilaviy- maishiy mavzu planga chiqdi. Mening fikrimcha adibning bunday mavzuda asar yaratishiga adib hayotining bo‘ronli kunlardan tinch osuda kunlarga o‘tishi nazarimda.

Abdulla Qahhor ijodi tufayli qiyin hayotni boshidan kechirgan shaxs. Sobiq sho‘ro siyosatining o‘tkir qilichi uning salohiyatini ma’lum ma’noda kesdi. Biroq ruhan bardoshli bo‘lgan adib hayotga, ijodga jon jahdi bilan yopishdi. U ko‘p va xo‘p ijod qildi. Abdulla Qahhor ijodidagi o‘ziga xoslik hammamizga ma’lumki, so‘zni tejab, gapni nishonga tekkizish. Va Abdulla Qahhor hamisha buning uddasidan chiqqan. O‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan adibning hayoti va asarlarini tahlil qilar ekanmiz, uning deyarli har bir asarida Abdulla Qahhorning o‘z “men”i bor.

Aytish joizki, o‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qahhor ijodi ancha keng o‘rganilgan. Ammo tuzum siyosati yozuvchi shaxsi bilan qiziqishni ancha chetga surib qo‘ydi. Shaxs ruhiyati, ichki dunyosi, borlig‘i va tuyg‘ulari bilan

hisoblashmadi. Aksiga olib, yozuvchining shaxsiy, oilaviy hayoti ham bir maromda kechmadi. U hayotning ko‘plab past-u balandliklariga duch keldi.

Ayniqsa adibning oilaviy hayoti murakkab bo‘ldi, bu esa o‘z navbatida uning ijodiga ham salbiy ta‘sir etdi. Shu sababdan ham boshqa ko‘plab adiblar singari Abdulla Qahhorni muhabbat kuychisi sifatida bilmaymiz. U asarlarida muhabbatning nafis tuyg‘ularini tasvirlab berolmadi.

Yozuvchi ayni navqiron 25-yoshida “Sarob” romanini yozdi (U aynan shu yoshida uylangan edi). Roman ijodkorga katta muvaffaqiyat keltirdi. Lekin asar voqealarini eslaydigan bo‘lsak muhabbati uchun kurasholmagan, boshqa-boshqaga tegib ko‘nib ketgan ikki yoshning muhabbati kitobxonni ranjitishi tabiiy. Yozuvchining shaxsiy hayotiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Abdulla Qahhor 2 bor turmush qurgan. Uning 1- turmush o‘rtog‘i tatar millatiga mansub Zaynabxon ismli ayol edi. Ular 10 yil birga yashadilar. Turmushlari davomida Po‘lat va Suyar ismli farzandlar ko‘radilar. Zaynabxonning boshqa birovni sevib qolib, adibga vafosizlik va xiyonat qilganligi ularning turmushlariga yakun yasaydi. Ishonchi va muhabbati poymol etilgan adib birqancha payt o‘ziga kelolmaydi. Shundan so‘ng “burgaga achchiq qilib” deganlaridek go‘zal ayollar shaydosiga aylanadi. Kibriyo xonimga uylanguncha ancha ayollar bilan “ishqiy sarguzashtlar”ni boshdan kechiradi. Albatta, haqiqiy muhabbati adib aytganiday “qarilikda yetilgan muhabbat”i – Kibriyoxonimni uchratguncha.


Keyinchalik aynan shunday holatlar uning asarlarida o‘z aksini topadi. “Zilzila”, “Muhabbat” qissalarida xiyonat ko‘chasiga kirgan ayollar siymosi gavdalantiriladi.

Boshqa ko‘plab ijodkorlarda bo‘lgani kabi Abdulla Qahhorning ham ijodi o‘z biografiyasi asosiga qurilgan. Lekin ko‘pchilik shoir yozuvchilar hayoti haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lmaganimiz uchun ularning asarlaridan biografiyasini o‘qiyotganligimizni anglamay qolamiz. Yuqorida Abdulla Qahhor ijodini biografik metod orqali tahlil qilishga harakat qildik.

“Ma‘lumotlar beshligi” metodi. Bu metodda Abdulla Qahhor hayoti va ijodiga oid eng muhim 5ta ma‘lumot yoziladi.

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____

“Klaster” metodi. Bu metodda yozuvchi shaxsiyatini ochib beruvchi malumotlar keltiriladi. Natijada o‘quvchilar ko‘z oldiga Abdulla Qahhor shaxsi gavdalanadi.



2.2. Muhammad Yusuf she'rlari orqali yozuvchi biografiyasini yaratish

Iste'dodli qalam sohiblarimizdan biri - Muhammad Yusuf rostg'oy shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Shoir muhabbat haqida kulaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz sahifalarini qalamga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari ravon va soddaligi bilan xalqonadir.

O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov uni: "Adabiyotimiz gulshanida ochilib, yashnab turgan bir chechak edi", deb baholaydi.

Muhammad Yusuf biografiyasini o'rganishda esa uning hayoti va she'rlari orasidagi uzviy bog'liqlikni kuzatishimiz mumkin. O'quvchi shoir she'rlarini o'qiganda uning hayoti, qalb kechinmalari va uning xayollarini bilib oladi. Haqiqiy shoir yoki haqiqiy yozuvchi boshidan o'tkazgan voqea-hodisalarni qog'ozga tushirsagina u kitobxon qalbidan joy oladi, shundagina u millat va xalq yozuvchisiga yoxud shoiriga aylana oladi. Tadqiqot ishimda tanlagan 2ta qahramonim ham ana shunday xalq suygan ijodkorlardir. Ularning biografiyasi haqida bilmagan inson bo'lmasa kerak. Bizning xalqimizda kim bo'lishidan qat'iy nazar u yozuvchimi, shoirmi, qo'shiqchimi, xullas sal odamlar nazariga tushdimi odamlar uning qilayotgan ishlariga emas uning hayotiga ya'ni shaxsiy hayotiga qiziqishga tushadi. Menimcha bu faqat bizning millatgagina xos narsa. Men bu gapim bilan bu yomon demoqchi emasman, bu narsa ham bir tarafdin yaxshi. Lekin har narsada me'yor bo'lgani yaxshi nazarimda. Har bir yozuvchi va shoir ijodini o'rganish bo'yicha yozilgan dissertatsiya va BMI larda ijodkor va shaxs uyg'unligi masalasi, ijodkor ruhiy kechinmasining asarlarida ifodalanish tarzi ham hammasida har xil. Chunki har bir asar hammaga har xil ta'sir qiladi she'r ham xuddi shunday. Shoir hayotida yuz berayotgan, qalbida kechayotgan tuyg'ularni mohirona aks ettirsagina u asar o'quvchini o'zini dardiday, o'zining ichki kechinmasiday bo'la oladi.

Muhammad Yusuf o'zbek she'riyatiga o'zgacha bir ruh olib kirgan shoir sifatida abadit tarix zarvaraqlarida muhrlanib qoldi. Shoir ijodi davomida turli

mavzularda ko‘plab she‘rlar yaratdi. Uning har bir she‘ri bir tarix, bir kitob bo‘ladigan mazmun-mohiyatga ega edi. Bitiruv malakaviy ishida yangilik sifatida shoir she‘rlarini shoir yosh xususiyatiga qarab davrlashtirib chiqdik. Yuqorida aytib o‘tganimdek shoir qo‘l urmagan mavzu yo‘q. Alisher Navoiy o‘z asarlarida inson yoshini turli fasllarga va narsalarga o‘xshatganidek biz ham Muhammad Yusuf she‘rlari inson umrining turli davrlarini qamrab olgan, turli yoshda yozilgan she‘rlarini Muhammad Yusufning o‘zining hayoti misolida tavsiflashga harakat qildik.

Demak, shoir she‘rlarini birma- bir tavsiflar ekanmiz uning she‘rlari ham o‘zi kabi buyuk va buyuk insonlar nomi ila keltirilgan desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Shoirning “Tug‘ruqxonada” nomli she‘ri diqqatimni tortdi:

Mana qanday ekan otalik baxti,
Turibman gullarim bilan anada.
Bir mahlla bo‘lg‘usi faylasuflar,
Olimlar chinqirar tug‘ruqxonada...

Haqiqatdan ham tug‘ruqxonada tug‘ilganda hamma chaqaloqlar bir xildek, ammo ularning kelajakda biri olim, biri faylasuf, biri esa buyuk daho bo‘lishini hech kim xayoliga keltirmaydi. Shoir Muhammad Yusuf tug‘ilganda ham uning otasi xuddi shunday baxtdan sarmast bo‘lganligi aniq, albatta. Shoir she‘rida ta‘riflaganidek, tug‘ruqxonada Muhammad Yusufdek xalq shoiri, buyuk o‘zbek shoiri dunyoga kelgan. Shu she‘rida ham shoirning “Bir mahalla bo‘lg‘usi faylasuflar, Olimlar chinqirar tug‘ruqxonada” degan misrasida aytilganidek Muhammad Yusuf ham o‘zi bashorat qilganidek buyuk shoir bo‘lib yetishdi. “Tavallud” nomli yana bir she‘rida esa:

Qirq yil...
Qancha qushlar ketib, qushlar qaytdi,
Menga mehnat yo‘rgagimdan yuqqan ekan.
Arang anglab oldim, soqov akam aytdi-
Onam meni paxtazorda tuqqan ekan.

Bu she'rdam ham insonning qay tarzda tug'ilishi insonning kelajagiga ham ta'sir qilishi haqidagi irimlardan biriga ishora qilyapti.

Yurtim, omon bo'lsin bari bolalaring,
Va ularga doya, tug'ruqxonalar ham.
Omon bo'lsin ufqqa tutash dalalaring,
Dalalarda bizni tuqqan onalar ham.

“Tavallud” she'rining oxirgi baytida ham tug'ruqxona va tug'ilishga ishora bor. Haqiqatan ham, avvalo insonning tug'ilishi bilan bog'liq xotiralar uning otanasini va yaqinlari xotirasida muhrlanib qoladi. Demak, xuddi shunday Muhammad Yusuf ham 1954-yilning 26-aprelida Andijonning Marhamat tumanida dunyoga keladi. Yuqoridagi she'rdam shoirning dehqon oilasida dunyoga kelganligini uning “Dalalarda bizni tuqqan onalar ham” misrasidan anglab olish mumkin. Shoir she'rlarini o'qiydigan bo'lsak, uning butun hayoti, biografiasini uning she'rlaridan bilib olish mumkin. Chunki shoir dardini ham quvonchini ham she'rga to'kib soladi. Mana shoir tug'ildi.

Muhammad Yusuf bolaligidan adabiyotga mehr qo'ygan. Tengdoshlari orasida o'zining teran fikrlashi bilan ajralib turgan. Adabiyotni sevgan insonning matematikaga mehr qo'yishi qiyin albatta. Nafaqat adabiyot o'zi matematika qiyin fan bo'lganligi uchun ko'p insonlar o'zlashtirolmaydi. Shoir ham bolaligidan matematika fanini yomon ko'rganligini o'z she'rlarida keltirib o'tgan:

Orzularim – qaysar qanotlarim,
Osmonlarda uchib yuraman.
Singlim oyni o'pib, ukalarim –
Yulduzlarni quchib yuraman,
Matematikani yomon ko'raman.

Atomlar - matematika.

Vodorodlar – matematika.

Qiruvchi samolyotlar,

Krematoriyalar – matematika!
Matematikani yomon ko‘raman.

Sen esa shirin bir dardsan.
Sen yaxshi niyatsan.
She‘riyatsan...

Shoirning har bir she‘rida uning siymosini ko‘rgandek bo‘lamiz. Uning hayotidagi har bir voqeani ko‘rib turgandek bo‘lamiz. Shoir hayotining har bir davri o‘ziga xos tarzda kechgan. Uning she‘rlarida ham, albatta, bu o‘z aksini topgan. Yuqorida aytib o‘tkanimizdek, shoir Andijonda tug‘ilib o‘sgan. Kindik qoni to‘kulgan yer insonga hamma yerdan aziz bo‘ladi deganlaridek, shoir o‘qish va ijod sabab Toshkentda qolib ketganiga qaramay, doim ona Vatani Andijonni sog‘inib, qo‘msab yashaydi.

Nechun qulluq qilmay Andijonga men –
Shu yurtida tug‘ildim, shu yurtida o‘sdim,
Agar do‘stim bo‘lsa, bitta u do‘stim –
Nechun qulluq qilmay Andijonga men!...

Shoir she‘rda vatanga bo‘lgan muhabbati, insonning vatan oldidagi farzandlik burchini, o‘zida his etgan mas‘uliyatni she‘rda aks ettirgan. She‘rning yana bir misrasida esa o‘zi Vatandan olis bo‘lsa-da, har doim Vatan yodi bilan yurishini aytib o‘tgan.

Yodimga o‘t tushsin, etmasam yodlar –
Dukchi eshonlari qilgay faryodlar,
Uni tavof etgan Mashrabdek zotlar,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men!...

Shoirning ko‘plab she‘rlarida buyuk siymolar, ajdodlarimizning nomlari qayd etilgan. Bu she‘rda ham Andijondan chiqqan buyuk zotlarni Dukchi eshon va Mashrabni tilga olib o‘tadi. Muhammad Yusuf she‘rlarida yodga olib o‘tmagan shoir, vatan uchun jonini fido qilgan zotlar, buyuk siymolar, O‘zbekning faxri bo‘lgan har bir zot borki, hammasi atab she‘r, yoki she‘rida nomini keltirib hurmat

bajo aylab o‘tib ketadi. Muhammad Yusuf ana shunday Vatanparvar va jonkuyar shoir bo‘lgan. Buni hamma zamondoshlari biladi, aytadi. Bu uning ijodida ham o‘z aksini topadi.

Muhammad Yusuf shaxsini, uning xarakter xususiyatini uning she‘rlari orqali yosh davrlariga moslab ochar ekanmiz uning ayni o‘smir davrdagilarga xos tarzda yozilgan she‘ri diqqatimizni tortdi. Quyidagi she‘rda shoir hamma yuz beradigan holat birinchi muhabbat deyishga hali ertadir-u, kimnidir yoqtirib unga yoqish uchun qilgan harakatlarini o‘qishimiz mumkin:

Mana shu – men tug‘ilgan go‘sha,
Uyga yetdim – ariq hatladim,
Shu yerlik bir qizga yoqay deb,
Uzun – uzun she‘rlar yodladim.

Yodladimu aytolmay unga,
Bag‘ri dilim to‘ldi dog‘ bilan.
Osmonlarga termulib yotdim,
Tomda singlim qizg‘aldoq bilan.

She‘rdan anglash mumkinki, shoir bolaligida yoqtirib qolgan qiz uning qo‘shnisi yoki hamqishlog‘i. Yurak yutib unga aytolmagan gaplarini qog‘ozga tushirgan Muhammad Yusuf ulg‘aymoqda uning qalbida muhabbat uyg‘onmoqda

Maktabni bitirgach Muhammad Yusuf o‘qishga kirish uchun shahri azim Toshkentga keladi. Rus tili va adabiyoti universitetiga o‘qishga kiradi. Uning hayotidagi ko‘plab mashhur she‘rlar shu yerda musofirchilikda yurganida yaratiladi. Shoirni qachonki, sog‘inch yoki biror dard qiynasa u shundagina go‘zal she‘rlar yaratadi. Yaqinlarini sog‘inib, shoir poytaxtda turib onasi va singlisiga she‘riy maktub yozadi:

Men sizni o‘ylayman shom-u saharda,
Ona, sog‘insam ham bora olmayman,
Tunlari charog‘on shunday shaharda,

Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.

Men siz aytgandayin hammani sevdim,
Hammaga ishondim, mana oqibat:
O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim,
Kun bo'lib kuydirdi ko'ksimni nafrat.

Shoirning onasiga bag'ishlangan bu she'rida shoir musofirchilikda yurib onasiga ko'nglini yormoqda. She'rda goh onasini sog'inganini, goh boshidan o'tayotgan voqealarni qisman- qisman aytib o'tadi.

Keying singlisiga bag'ishlangan she'rida ham xuddi shunday olisda shoirni qiynagan sog'inch va jigariga bo'lgan dardkashligini bayon etadi.

Qachon xat yozgandim senga, bilmayman,
Qofiya bilan band bugun tosh ko'nglim.
Yolg'iz akang bo'lib,
Yoningda yurmayman...
Kechir meni, singlim,
Kechir meni, singlim.

Keyingi bandlarda ham xuddi shunday shoir singlisiga o'z ko'nglini yoradi. Shoirning she'rlarini yomon degan adabiy xodim va qishlog'ining suvigacha sog'ingan shoir she'rni shunday davom ettiradi:

Umrinni yulqilab,
Yillarim o'tar,
Yurak yig'laydi-yu,
Aytmas dardini.
Men she'rim qo'ltig'lab,
Kun bo'yi izlayman,
Adabiy xodimning bitta mardini.

Biriga qandaydir turoqlar dastak,
Birin o‘ylantirar hali yoshligim:
Nega bu she’ringiz otlar haqida,
Ularni yoqtirmas, mening boshlig‘im!...

Inson o‘qishga kirib, uyidan olisda yurganda har xil odamni va har xil vaziyatni ko‘radi. “Musofir bo‘lmaguncha - musulmon bo‘lmaysan”– deganlaridek shoirning ham studentlikda endi she’r yozishni boshlagan kezlari boshiga tushgan qiyinchiliklari ham shoirning haqiqiy shoir bo‘lishiga zamin yaratganligi shubhasiz.

Endi esa shoirni she’riyat cho‘qqisiga olib chiqqan hayotining ham eng go‘zal damlaridan biri bo‘lgan shoir qalbida muhabbat olovini yoqqan qiz va uning shirin dardlari haqida shoir hayotini davom ettiramiz. Shoir o‘qib yurgan kezlari shu yerda o‘qiydigan bir qizni bir ko‘rishda yoqtirib qoladi. Uning ismi Nazira edi. Doim uni kuzatib yurgan shoir bir kuni amallab unga o‘z sevgisini izhor qilganida qiz rad etadi. Shoir esa tushkun kayfiyatda uni ortidan qarab qoladi. Bu holatni shoir shunday ta’riflaydi:

Bekatlarda men qolarman-da,
Aytar so‘zim qolib ketadi.
Tramvaylar seni har kuni
Bodomzorga olib ketadi.
Termulaman izlaridan jim,
Boqib, ko‘zim tolib ketadi.
Bodomzorga seni har kuni
Tramvaylar olib ketadi.

Albatta, birinchi marta sevgi izhor qilingandan “Ha” deb javob berish yoki rozilik bildirish bizning mentalitetga xos emas. Xuddi shunday bir necha martalik qiynalishlar va yolvorishlardan keyin Muhammad Yusuf ishq otashida kuyib o‘zining muhabbat haqidagi go‘zal she’rlarini yaratadi.

Seni hech kim sevolmaydi meningdek,

Vaslingga zor bu oshiqlar ehtimol,
Poyingga tiz cho‘kib yig‘lar ehtimol,
Lekin sodiq bo‘lolmaydi meningdek!...

Yana bir she‘rda esa:

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,
Ey ko‘hna dard, ey ko‘hna tuyg‘u.
Ko‘kragimga qo‘lingni tirab,
Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku!..

Mana bu she‘r esa qizning fikr-o‘ylarini ifodalasa ajabmas. Bu ham balki haqiqatga yaqindir. Shoirlar har kun sevsam ham, chin dildan bir marta sevadi. O‘zi sevgi hech qachon insonga ikki marta berilmaydi.

Bilaman, taxminan
Shunday o‘ylaysiz:
Shoirlar – devona,
Tuzalmaydilar,
Shoirning sevgisi
O‘tkinchi deysiz,
Shoirlar odamdek
Sevolmaydilar

Xuddi shunga o‘xshagan yuzlab hatto minglab she‘rlar yaratgan shoir muhabbatning barcha sinovlaridan o‘tgan, toblangan va boshidan o‘tkazgan kishi sifatida muhabbatni madh etgan ajoyib she‘rlar yaratadi. “Jon kuydirmasang jonona qayda” deganlaridek shoir muhabbatiga erishish uchun harakat qilib, oxiri qizning roziligini oladi va unga uylanadi. Nazira as-Salom o‘zi ham ijodkor bo‘lganligi bois Muhammad Yusuf bilan o‘zlarining “Muhabbat qasr”larini quradilar. Shoirning baxtdan masrurligini ushbu she‘r yana bir karra tasdiqlaydi:

Mayli-da, kimgadir
Yoqsa, Yoqmasa,
Ularga qo‘shilib
Yig‘lasharmidik.

Biz baxtli bo‘lamiz
Xudo xohlasa,
Xudo xohlamasa
Uchrasharmidik...

Bu she‘rni yoddan bilmagan kishi bo‘lmasa kerak. Ana shoirni tug‘ilganidan boshlab to shu paytgacha bo‘lgan paytini o‘z she‘rlaridan “qidirib topdik”. Endi esa shoir uchun eng katta baxtlardan biri otalik baxti va uning quvonchi bilan sizlarni yana bir bor bahramand etmoqchiman. Shoir qizlarini juda yaxshi ko‘rgan, ularga atab ham, albatta, she‘rlar yozgan:

Madina, Madina, nega yig‘laysan,
Mening asal qizim, qachon uxlaysan?
Isitmang tushmadi, topolmadim dori,
Tinmadi chaqaloq joningni zori,
Yarashmas yashamoq nokasga yolvorib,
Chida, yorug‘ tongni kutamiz, qizim,
Biz hali hammadan o‘tamiz qizim...

She‘rning davomi ham juda ajoyib yozilgan. Shoir qiziga dardini to‘kib solgan desak, to‘g‘riroq bo‘ladi. Shoir qizlariga atab juda ko‘p she‘rlar yozgan “Qizim Ma‘sudaga”, “Madina” va boshqa nomdagi she‘rlar ham bunga misol bo‘la oladi. Shoirning “Qizlar qo‘shig‘i” nomli she‘ri esa uning qizlari uchun yozgan eng go‘zal she‘ridir:

Qiz yo‘q uyda sarin sabo esmaydi,
Qiz yo‘q uyda jambil-rayhon o‘smaydi.
O‘g‘illarning ota bilan ishi yo‘q,
Qiz otasin har qadamda eslaydi.
Ko‘zlariga surgay yurgan izingiz,
Qay o‘g‘ildan kamdir, ayting, qizingiz.

Muhammad Yusuf ijodidagi ko‘zga tashlanadigan jihat uning “O‘tkan kunlar” asari bilan bog‘liq. Hech bir shoir bu asarga bag‘ishlab bunchalik ko‘p she‘r yaratmagan bo‘lsa kerak. Shoirning bu asardan juda ta‘sirlanganini o‘zi

eskirgan bo'lsa-da mavzusi eskirmaydigan asarga bag'ishlab yozilgan (asardan ta'sirlanib yozilgan she'rlari desak to'g'riroq bo'ladi) she'rlaridan bilish mumkin. Uning asar bosh qahramonlarinig har biriga atab she'r yozganligidan ham buni anglash mumkin. O'zbek romanchiligiga asos bo'lgan roman "O'tkan kunlar" romani o'zbek xalqining faxr-u iftixoridir. Haqiqatan ham, hali hanuz qo'ldan tushmay o'qib kelinayotgan ushbu asar haqida har qancha gapirsak oz. Shoir ijodida alohida sahifa sifatida kirgan she'rlari uning "O'tkan kunlar" romanining mashhur qahramonlariga atab yozilgan she'rlarini tahlilga tortmoqchimiz.

"Kinoga kirmayman"

Bilet topilmaydi "O'tkan kunlar" ga,
Qizlar qaytib kelar ko'z yosh qilishib.
Xayr, uyqu, deyman-u menda yo'q orom,
Muqovasiz kitobimga muk tushib.

Nogoh musiqalar tingan yotoqda
Kitob kirmagan xona qolmagan.
Hech kim uni mendek o'qimagan, lekin
Hech kim uni mendek o'qiy olmagan.

Ko'zimni yumaman, kulgichlari yayrab,
Kumush bolasiga ro'molcha to'qir.
Keyin ichkaridan – ming yil naridan,
Zaynabning nigohi jonimni cho'qir.

Shunday oqshom botar , shunday tong otar,
Kitobim o'qiyman –satri muqaddas.
Menga yoqmas ekrandagi Otabek,
U boshqa. U boshqa , men bilgan emas!...

Bilet topilmaydi "Otkan kunlar" ga,

Men esa kirmayman bekorga ham hatto.
Mayli, qarsak chalay iste'dod uchun
Lekin san'at - san'at, hayot- hayot-da.

Ko'zimni yumaman, kulgichlari yayrab,
Kumush bolasiga ro'molcha to'qir.
Keyin ichkaridan – ming yil naridan
Zaynabning nigohi jonimni cho'qir.

Yuqoridagi she'rda shoirning “O'tkan kunlar” romanini naqadar sevishini, undan naqadar ta'sirlanganini kuzatish mumkin. Asardagi hech bir qahramonni shoir yomonlamaydi, unga qarshi chiqmaydi, har birining holatini tahlil qilib har birining yuragiga, qalbiga kirib chiqadi. Hattoki, qotil Zaynabni ham “U rashk bandasi” – deya yonini oladi. Yana bir joyda Zaynab tilidan aytilgan “Zaynab qo'shig'i” she'rida Zaynabning qalb dardlarini Zaynab tilidan ta'sirli tarzda she'rga soladi. She'rlardan shuni anglash mumkinki, shoir marg'ilonlik Kumushning haqiqiy “oshig'i”. Kumush obrazi shoir hayotida ham ijodida ham o'z o'rniga ega.

Shoirning “Kumush” nomli she'rini tahlilga tortsak:

Marg'ilonda Kumushni ko'rdim,
Ko'ziga yosh to'lib turibdi.
Sochlarini maydalab o'rib,
Otabekni izlab yuribdi.

Tongda turib qalam qoshiga
O'sma qo'ygan ekan – quribdi.
Ko'zdan oqqan achchiq yoshiga,
O'smasini yuvib turibdi...

Meni bir o'y qiynaydi yomon,
Yana yurak o'ynadi yomon.

Qo‘yvor zamin, qo‘yvor osmon,
Men uyimga yetaman qachon?

Uchib keldim uyimga omon,
Beshyog‘ochda gullabdi o‘rik...
Toshkentga qiz berma, Marg‘ilon –
Qodiriy yo‘q. Zaynablar tirik.

“Kumush” she‘rida keltirilgan har bir so‘z kishini “O‘tkan kunlar” romaniga xayolan sayohatga, yana va yana asar haqidagi bahsga olib boradi. Ayniqsa, she‘r oxiridagi “Toshkentga qiz berma, Marg‘ilon- Qodiriy yo‘q. Zaynablar tirik.” – satrlari kishini juda g‘alati ahvolga solib qo‘yadi. E‘tibor qiladigan bo‘lsak ko‘pchilik Kumushga asar qahramonlari ichida ayricha mehr qo‘yadi. Bunga sabablar asarda juda ko‘p. Shoir ham Kumush obraziga o‘zgacha mehr qo‘yganini uning Kumush haqidagi ikkinchi “Bibi” nomli she‘ridan ham anglash mumkin:

“Bibi”

Marg‘ilon havosi elitdi andak,
Ma‘yus ko‘chalarda yurdim dovdirab.
Hozir Kumush chiqib qoladigandek
Har eshikka boqdim ko‘zim jovdirab.

Chiqsa, Bibi derdim,
She‘rga yor bo‘ldim,
U bir yuho yanglig‘ domiga tortar.
Shuhrat yo‘liqqanda do‘stga zor bo‘ldim,
Qalbimni yolg‘izlik azobi o‘rtar

Asli-ku, shaharga yo‘lim chap edi,
Netay, poytaxtdaman, nasibam ekan.
Sening-ku dushmaning bir Zaynab edi,
Mening kundoshim ko‘p, yovlarim ulkan!...

Bulardan qo‘rqulik. Bular dog‘uli,
Zaynab nima? Zaynab bir rashk bandasi.
Bular dushmanlarning eng nomard xili,
Bular kundoshlarning eng sharmandasi.

Qon to‘la ko‘zida yaltirar hasad,
Bular na shoir, na omadsiz odam.
Ular oyoq kuygan har zina jasad,
Shular gumdon qilgan Qodiriyini ham...

Marg‘ilon havosi elitdi andak,
Ma’yus ko‘chalarda yurdim dovdirab.
Hozir Kumush chiqib qoladigandek
Har eshikka boqdim ko‘zim jovdirab.

Chiqsa, Bibi derdim,
Men yozmay qo‘ydim,
O‘rningga boray, sen Marg‘ilonga qayt.
Tug‘ildim. Yashadim. Zerikdim. To‘ydim.
Zaharidan bersin, kundoshingga ayt!...

Bu she’rni esa shoir asardagi Kumushbibiga o‘zining yashab turgan, atrofidagi qiyinchiliklardan nolib, hasbi hol tarzida yozganini kuzatishimiz mumkin. Atrofidagi qiyinchiliklardan, kishilardan bezgan shoir oxirida hattoki “Zaharidan bersin, kundoshingga ayt!... - deb yuboradi. Asar qahramonlarini shu qadar o‘ziga yaqin olgan shoir boshqa qahramonlarni ham unutgani yo‘q. Chunki, ularning har birining taqdiri shoirni o‘ylantirib, tinchlik bermaydi. Shoir-ku mayli, hattoki, o‘zimiz ham shu “O‘tkan kunlar” haqidagi “Zaynab yaxshimi yo Kumush. Ayb kimda?” – degan siyqasini chiqqan mavzudagi bahsni bolalikda boshlab hanuz tugatolmaymiz. Oxiri yo‘q mavzu. Hammada fikr har xil. Janjalga aylanib

ketgan, oxiri yo‘q bahslarimizni yo‘limizda uchragan har bir ustozdan, hattoki, suhbatlashgan har bir kishimizdan so‘rab shunda ham o‘z fikrimizda qolganmiz. Fikrimiz o‘zgarishiga boshqalar aytgandek, balki vaqt kerakdir, balki hamma o‘z fikrida qolgani yaxshidir. Lekin shoir zotining fikri o‘zgarib turadi. Bir qahramonni yoqtirmasa-da, yomon ko‘rolmaydi. U yomon obraz bo‘lsa-da undan ham ijobiy sifatlarni izlaydi, o‘rniga o‘zni qo‘yib ko‘rib yana ko‘ngli yumshaydi. Muhammad Yusuf ham xuddi shunday Kumushbibiga mehri o‘zgacha bo‘lsa-da, Zaynabning ahvolini tushunib unga ham bag‘ishlab “Zaynab qo‘shig‘i” nomli she‘rini yozadi.

“Zaynab qo‘shig‘i”

Tengim boshqa, dedi yor,
Topdim desam tengimni.
Marg‘ilonlik bir dildor
Tortib oldi begimni.

Kulgu ketmay ko‘zimdan
Yog‘ar bo‘ldi ko‘zyoshim.
Ko‘z- ko‘z qilib baxtini
Yoqar bo‘ldi kundoshim.

Nima bo‘ldi, bek yigit,
Bekangizga qarash yo‘q
Kumushdan ming o‘rgilib,
Zaynabdan hol so‘rash yo‘q.

Taqdir derdim, shum taqdir,
Ko‘nglim ko‘nsa – kuymasdim.
Begim, sizni men axir,
Kumushdan kam suymasdim...

Qolsam dardim bir dunyo,
Ketsam –bir uy ko‘chim bor.
Kumushoyni keltirgan
Aravada chim bor!

Mening fikrimcha, shoirning shu she‘ridan keyingina ko‘pchilik Zaynabning ham ahvolini tushunganday nazarimda. Chunki, o‘zim ham Kumush taraflardan, Zaynabni ko‘rishga ko‘zim- otgani o‘qi yo‘qlardan edim. Ammo she‘rni o‘qib Zaynabga nisbatan muzlagan tosh qalbim sal bo‘lsa-da eriganday bo‘ldi. Ichimda tan olsam-da, ammo bu narsani bahslarda hech tan olgim kelmaydi. 8-sinfda adabiyot o‘qituvchim Zaynabni qoralab aytgan fikrlarimni eshtib “Sen sal bo‘lsayam Zaynabni tushunolmayapsan. Uni o‘rniga o‘zingni qo‘yib ko‘r” – deb rosa gapirgandi. Oxiri uqtirishlarining foydasi bo‘lmagach “Sani fikringni birgina vaqt o‘zgartirsa kerak. San bilan xuddi shu mavzuni 10yildan keyin yana muhokama qilamiz degandi. Mana shu bahsgayam 8 yil bo‘ldi. Asar qahramonlari haqidagi fikrim o‘zgarishining asosiy sabablaridan biri shu she‘r desam to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki romanda Zaynabni oqlaydigan birorta sabab topolmaganman. Abdulla Qodiriyning maqsadi ham balki shu hammani asar haqida yillab o‘ylashga, bahslashishga majbur qilishdir. Yanayam kim biladi?!

Asarda hamma uchun “Eng katta aybdor”lardan biri, ikki qizning baxtsizligiga sababchi bo‘lgan obraz bu- Otabek obrazidir. Shoirning “Otabek qo‘shig‘i” she‘ri kitobxonlarga Otabekning dil-hasrati bo‘lib yangraydi.

“Otabek qo‘shig‘i”

Sen Shirin-u men ham Farhod emasman,
Sen achchig‘u men ham novvot emasman.
Zaynab, Zaynab, menga aytma zoringni,
Sen dilxun-u men ham dilshod emasman...

Boshga neki tushsa ko‘kdan atomish,
Biz bir qafas aro giryon bir juft qush.
Bir go‘shada sen xomushsan, men xomush –

Sen vayron-u men ham obod emasman.

Biz bir dinda muridlar ikki pirga,
Yo‘latmasman seni men bilgan sirga,
Biz na do‘stmiz, biz na g‘anim bir-birga,
Sen jayron-u men ham sayyod emasman.

Senga qo‘ysin suymaganni suyishni,
Shunday yashash aytgil, ko‘nglingga xushmi?
Seni quchib, sog‘inaman Kumushni,
Jon omon-u o‘zim hayot emasman.

Ey gul, suyib ne topding men yomondan,
Bekman, senga yor tilayman sultondan,
Ko‘z uzmasman men Marg‘ilon tomondan,
Senga ket ham, senga qol ham demasman...

Sen Shirin-u men ham Farhod emasman,
Sen achchig‘u men ham navvot emasman,
Zaynab, Zaynab, menga aytma zoringni,
Sen vayronu men ham obod emasman!

Otabekning Kumushga bo‘lgan muhabbati uni Toshkentning eng go‘zal qizlaridan bo‘lgan Zaynabga qayrilib qarshga-da izn bermaydi. Uning qarshisida jonsiz haykalga aylangan Otabekga ham bir qizni bunchalik qiynash azob,albatta. Lekin u baribir erkak kishi bu narsaning yechimini Kumush o‘lmasidan avvalroq topishi kerak edi ,menimcha. Yuqorida keltirilgan “Otabek qo‘shig‘i” she’rida ham uning Zaynabga aytgan alamli so‘zlarini o‘qish mumkin. Ammo shoir tilidan aytilgan har bir bandning oxirida aytilganidek, “Men ham dilshod emasman, Men ham obod emasman, Men ham sayyod emasman, Jon omonu o‘zim hayot

emasman...” kabi misralari asardagi Otabekni o‘rtagan degan fikrga , to‘g‘risi uncha qo‘shilmayman. Erkak kishiga ikki ayolni bunaqa ahvolga solib qo‘yish uncha yarashmaydi nazarimda. Mayli, yana bahsga berilib ketmaylik. Shoir ijodidagi bu she‘r ham shoirning asardan olgan taassuroti asosida yozilgan. Shoirning yuqoridagi she‘rlarini birma- bir o‘qigan kishida Muhammad Yusuf haqida “ko‘ngli bo‘sh, hech kimni ayblamaydigan kishi” degan fikr o‘tadi. Shoir haqiqatdan hayotda ham xuddi shunday inson edi. Uning Otabekni ham, Kumushni ham, hattoki Zaynabni ham dardini o‘z dardiday his qilib yozgan she‘rlaridan ham qanday insonligini bilish mumkin.

Shoir hayoti davomida har xil mavzuda she‘rlar yozdi. Lekin uning umri o‘tib borgani sayin she‘rlarining mavzu ko‘lami ham uning hayot tarzi bilan chambarchas holda g‘ujg‘on fikrlar va o‘ylar qurshovida o‘tadi:

Qo‘rqaman, ertaga men o‘lib ketsam,
Yotar bo‘lsam qumga botib ko‘zlarim,
Ko‘nglimni ko‘chkiday bosadi bir g‘am –
Yig‘lashni ham bilmas mening qizlarim...

Inson yoshi o‘tgani sari o‘lim haqida ko‘p o‘ylaydigan bo‘lib qoladi. Ammo shoir hali u yoshga yetmagandi. Ko‘ngli sezganmi erta o‘lishi shuning uchun shu “Xavotir” nomli she‘rni yozib qoldiradi. O‘zining kasalini bilgan shoir o‘zini ham atrofda qilarni ham shunga ruhan tayyorlab borish uchun shu kabi she‘rlar yozgan bo‘lsa ajabmas.

Bosh bir kun tosh yostiqqa yetar,
Ruh to‘tisi tanni tark etar.
Deydilar yosh tanlamas ajal,
Xudo bilar, kim oldin ketar...

“Ruh to‘tisi” nomli bu she‘rda ham shoir o‘lim haqida yozadi. She‘rning oxiri esa juda ta‘sirli yozilgan:

Ko‘zim ko‘kda, sizda xayolim,
Jujuqlarim – mening kamolim!...
G‘animatmiz, jufti halolim,

Xudo bilar, kim oldin ketar!...

Yurak xuruji bilan ogʻrigan shoir toʻsatdan 2001-yil Qoraqalpogʻistonning Ellikqalʼa tumanida boʻlgan ijodiy uchrashuv paytida soʻzga chiqib nutq soʻzlab turgan joyida olamdan oʻtib qoladi. Sheʼrlarida aytganidek, oʻlim haq. Kim erta ketishini esa faqat xudo biladi. Lekin shoir oʻzining oʻlishini sezgandek shu kabi koʻplab sheʼrlar yaratadi.

Shoir sheʼrlarini mavzu jihatdan saralab uning tugʻilganidan boshlab to oʻlgunigacha boʻlgan davrni ijodi orqali yoritishga harakat qildik. Bitiruv malakaviy ishim mavzusidan kelib chiqib, shoir sheʼrlaridan uning biografiyasini tiklashga harakat qildik. Shoirning koʻplab sheʼrlari mavjud uning hayotini aks ettiradigan. Ammo shoir sheʼrlaridagi yana bir jihat diqqatimizni tortdi. “Buyuk insonlar nomini oʻz sheʼrlarida keltirgan buyuk shoir” – degan kichkina sarlavha ostida shoir sheʼrlarida ismlari tilga olingan mashhur shaxslar nomini keltirib oʻtmoqchiman. Shoir sheʼrlarini oʻqir ekansiz uning har bir sheʼri oʻz tarixiga ega. Buyuk dargʻalarning nomi esa uning sheʼrlarida oʻzgacha viqor bilan yastanib turadi. Shoirning birgina hammamizga yod boʻlib ketgan “Vatanim” sheʼrida nomlari keltirilgan shaxslar nomini sanab oʻtsak:

Sulaymon, Mashrab, Navoiy, Yassaviy, Xoʻjand, Chingizxon, Temur Malik, Muqanna, Shiroq, Jaloliddin, Bobur, Alpomish, Ulugʻbek, Padarkush (Abdulatif), Qodiriy, Usmon Nosir.

Aruz vaznida atoqli shaxslarning nomlarini keltirish orqali talmeh sanʼati yuzga kelgan boʻlsa, barmoq vaznida ham xuddi shunday shoirlarimiz kishilar nomini keltirib sheʼrda oʻzgacha brr uh ifoda etadilar. Birgina shu sheʼrning oʻzida joy nomlaridan tashqari 16ta inson nomlari keltirilgan. Ularning kimligi ham sheʼrda qisqacha oʻz aksini topgan. Mazmunidan anglab olsa boʻladi.

Bu narsa maktab va litsey kollejlarda oʻquvchilarni oʻqitishda ham muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Ayrim buyuk shaxslarning vatan oldidagi xizmatlarini toʻligʻicha bayon etishga vaqt yetmagan yoki oʻsha insonlar haqida koʻp bora eshtib uning qanday xizmat qilganini bilmay yurgan oʻquvchilar uchun bu usul ayni muddao. Oʻquvchilarga sheʼrda nomlari keltirilgan shaxslarning nomlarini

yoddan sanab o‘ting va ularning nima uchun she’rda nomlari keltirilganligini va tarixda qanday shaxs bo‘lganliklarini ayting deb “Debat” darsini tashkil qilish mumkin. Maktab darsliklaridan 8-sinfda Muhammad Yusuf mavzusi berilgan, menimcha bu savollar 8-sinfdagi o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi unchalik. Yuqorida nomlari keltirilgan shaxls nomlarining deyarli barchasini adabiyot va tarix darslari orqali taniydilar, yetarlicha ma’lumotga egalar. Buni boshqacharoq qilib metod orqali bersa ham bo‘ladi. “She’rda nomlari keltirilgan tarixiy shaxs nomlarini topib ularga ta’rif bering” savoli orqali o‘quvchilarga she’rni tushuntirish mumkin.

Yuqoridagi she’rlar orqali shoir ijodini uning biografiyasiga bog‘lashga harakat qildik. Shoir o‘zbek she’riyatida o‘z o‘rniga ega, xalq olqishini olgan, kamdan kam insonga nasib etadigan sevimli inson, nomini abadiylikka muhrlab ketgan shaxs sifatida tarixda qoldi. Qisqa umri davomida o‘zidan salmoqli meros qoldirgan shoir 47 yoshida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Ellikqal’a tumanidagi akademik litseyda ijodiy safar chog‘ida, minbarda she’r aytib turgan joyida olamdan o‘tadi. Shoir qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbat yashagan. Yuqoridagi she’rlardagi kabi uning hayot yo‘lini shoir ijodiga bog‘laganimizdek, shoir ijodidagi vatan haqidagi eng go‘zal she’rlaridan birini ham uning o‘sha o‘limi oldidan minbarda turib shu she’rni aytayotgan paytida olamdan o‘tganligiga bog‘lamoqchimiz:

O, ota makonim,
Onajon o‘lkam,
O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga .
Senday mehribon yo‘q,
Seningdek ko‘rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga.

Bir go‘sha suv bo‘lsa, bir go‘sha qirlar,
Qancha yurtni ko‘rdim, qancha taqdirlar.

Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog‘laring izimdan ergashib yurar.

Ko‘rdim suluvlarning eng faranglarin,
Yo xudbinman yo bir sodda kasman men:
Parijning eng go‘zal restaranlarin,
Bitta tandiringga alishmasman men.

Na gapga ko‘nayin,
Na til bilayin,
Ko‘zdan uyqu qochdi, dildan halovat.
Uch kunda sog‘insam nima qilayin?...
Chala qolar bo‘ldi hamma sayohat.


Bildimki, baridan ulug‘im o‘zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.
Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing
Arab ohusidan azizroq menga.

Sen bilan o‘tgan har kun bayram- bazm,
Sensiz bir on qolsam rahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta‘zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

Yuqorida keltirgan she‘rlar orqali oz bo‘lsa-da shoir ijodi orqali uning biografiyasini tiklashga harakat qildik. Shoir ijodidagi deyarli barcha she‘rlar uning o‘z hayotidan olingan, uning o‘zligini namoyon qiladi. Ammo biz shoir hayotining barchaga ma‘lum va mashhur jabhalarigina yoritishga harakat qildik.

Endi shoir ijodini o‘rganishda uning she‘rlarini mavzu jihatdan juda ko‘plab turlarga bo‘lish mumkin.

Quyidagi jadvalda biz shoir merosi jamlangan asosiy kitoblarni aks ettirishga urindik:



“Chala xat matni” metodi.

Muhammad Yusuf 1954-yilning 26-aprelida Andijon viloyatining Marhamat tumaniga qarashliqishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni shu yerda tugatgach, Respublika rust tili va adabiyoti institutiga o'qishga kirib, uni-yilda tamomlagan. Ijodga havas uni oliy ma'lumot olgach Toshkentda qolishga undadi.


1978-1980-yillarda kitobsevarlar Respublika jamiyatida ,1980-1986-yillarda "....." gazetasida 1986-.....yillarda G'afur G'ulom nomidagi nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida ishladi ,1992-1995-yillarda "O'zbekiston ovozi" gazetasida, O'zbekiston axborot agentligida ishladi. 1995 – 1996-yillarda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat va hamjamiyat qurilishi akademiyasida o'qidi. 1997-yildan umrining oxiriga qadar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi lavozimida faoliyat ko'rsatadi .

“Chala xat matni” metodi.

Muhammad Yusuf 1954-yilning 26-aprelida Andijon viloyatining Marhamat tumaniga qarashli Qovunchi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni shu yerda tugatgach, Respublika rust tili va adabiyoti institutiga o'qishga kirib, uni 1978-yilda tamomlagan. Ijodga havas uni oliy ma'lumot olgach Toshkentda qolishga undadi.

1978-1980-yillarda kitobsevarlar Respublika jamiyatida ,1980-1986-yillarda "Toshkent oqshomi" gazetasida 1986-1992-yillarda G'afur G'ulom nomidagi nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida ishladi,1992-1995-yillarda "O'zbekiston ovozi" gazetasida, O'zbekiston axborot agentligida ishladi. 1995 – 1996-yillarda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat va hamjamiyat qurilishi akademiyasida o'qidi .1997-yildan mrining oxiriga qadar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari lavozimida faoliyat ko'rsatadi.

Hayot va ijod metodi. Bu metodda o'quvchilar shoirning hayoti va ijodiga oid malumotlarni ajratib, bo'sh kataklarni to'ldirib yozadilar.



BILIMLAR DARAXTI



III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Tajriba-sinov natijalari.

Umumiy oʻrta taʼlimning 5-9-sinflarida oʻquvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini oʻqish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, goʻzallik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida oʻzlaridagi axloqiy-maʼnaviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarning aks ettirish zaruriyati esa oʻquvchilarning ogʻzaki va yozma nutqlarining rivojidadagi muhim omil vazifasini oʻtaydi.

Taʼlimning turli bosqichlarida oʻrganish uchun saralab olingan asarlarga qoʻyiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yoʻnalishi, oʻquvchi shaxsining yosh xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda uning kamoloti uchun koʻrsata oladigan ijobiy taʼsiri milliy va umuminsoniy gʻoyalarga uygʻunligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan oʻrni singari belgilar olinishi mumkin. Shu jumladan, adabiyot taʼlimi oʻz oldiga bir qator masalalarni qoʻyadi. Umumiy oʻrta taʼlim maktablaridagi adabiy taʼlim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki maʼnaviy-axloqiy yoʻnalishlar ustuvorligini koʻzda tutadi.

Ular orasida eng muhimlari quyidagilardir:

- oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda milliy va jahon adabiyotining eng munosib namunalari bilan tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan ragʻbat, mehr va muhabbat uygʻotish;

- ularni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida, adabiyotga, milliy, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;
- ularning boy va ma'naviy dunyosini shakllantirish;
- badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o'rganish asosida, o'quvchida tanqidiy fikrlashga oid ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- ulardagi mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivoji uchun imkoniyat yaratish;
- ularda har qanday ma'naviy xurujlarga nisbatan sog'lom va baquvvat e'tiqodga tayanadigan immunitetni shakllantirish;
- so'z san'ati vositasida o'quvchining individual va shaxslik fazilatlarini rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan maqsadlarni amalga oshirishda yozuvchi hayoti va ijodining o'qitilishi muhim ahamiyatga egadir. Dars jarayonida yozuvchi hayoti va ijodining o'quvchilarga turli xil metodlardan, jumladan, biografik metod, o'yin texnologiyalaridan va muammoli ta'limdan foydalanish yuqori natijaga erishishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adabiyot o'qitish quyidagicha amalga oshiriladi:

V-VII sinflarda yozuvchi tarjimayi holi va adabiy asarni sinfda o'qish, o'rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o'rganish va sinfdan tashqari o'qishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu yerda mavzuviylikka, syujetlilikka nisbatan ko'proq ahamiyat beriladi. O'quvchilarning ijodiy o'y-xayollarini individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san'atkorona tasvirlar orqali kengaytirish asosiy o'rin tutadi.

V-IX sinflarda o‘quvchilarga milliy adabiyotning rivojlanish tarixi, uning asosiy bosqichlari, undagi yetakchi tur va janrlar, eng muhim asarlar haqida dastlabki tushunchalar berish; ularga o‘zbek adabiyoti tarixi yaxlit bir estetik jarayon ekanligini singdirish, uning ta’sirchanligini ta’minlagan omillar, adiblarning badiiy mahorati, uslubiy o‘ziga xosliklarini aniqlash; mavzularga mos adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish ularda adabiy asarni tahlil qilish malakasini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Muhammad Yusuf hayoti va ijodini o‘rganishda 8-sinf adabiyot darsligida shoir she’riyatini o‘rganish uchun 2 soat ajratilgan. O‘qituvchi ajratilgan shu ikki soat davomida o‘quvchilarga shoir she’riyati, hayot yo‘li haqidagi ma’lumotlarni tushuntirib bera olishi kerak. Darslikda Shoirning “Vatanim”, “Mehr qolur”, “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor...”, “Biz baxtli bo‘lamiz she’rlari berilgan. Aynan shu she’rlar orqali Muhammad Yusuf she’rlarida insondagi yashirin tuyg‘ularning samimiy tasvirlanishi. His-tuyg‘ularning samimiyligi va haqqoniyligi Muhammad Yusuf she’rlarining yetakchi fazilati sifatida. Shoir she’rlarida inson ko‘nglidan kechgan ifodalash mushkul bo‘lgan sezgilarning o‘ta tabiiy aks ettirilishi. Muhammad Yusuf she’rlarining jozibadorligi va ta’sirchanligini ta’minlab turgan samimiylik, musiqiylik va tasvir o‘ynoqiligini oquvchilarga yetkazib berish lozim.

Amaliyot jarayonida Muhammad Yusuf hayoti va ijodini akademik litseyning III bosqich talabalariga o‘qitish jarayonida, biografik metodlardan foydalangan holatda shoir shaxsiyatini, ijodiy olamini yoritib berishga harakat qildik. Dars davomida “Bilimlar daraxti”, “Ma’lumotlar beshligi”, “Chala xat matni”, “Alifbo”, “Klaster” metodlaridan unumli foydalandik. Ayni dars jarayonida shoir she’rlarining kuyga solingan varianti, video materiallar, shoir

haqida mashhurlar bildirgan fikrlarning audio va video variantlarining o‘quvchilar e’tiboriga havola etilishi ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

3.2.Ochiq dars ishlanmasi.

“Muhammad Yusuf hayoti va ijodi” mavzusidagi ochiq dars ishlanmasi.

I. Darsning shiori:

“Umr bir surat, uni qanaqa rangga bo‘yash insonning o‘z qo‘lida”

II. Darsning maqsadi:

a) ta’limiy – Muhammad Yusuf ijodi, she’rlarining

mazmunini, ularda qo‘llangan badiiy vositalarni o‘rgatish va bilish, she’riyatga oshno etish, shoir ijodiga qiziqtirish.

b) tarbiyaviy – O‘z ozodligini, mustaqilligini qo‘lga

kiritgan Vatanni qutlar ekan, haqli ravishda xalq nomidan “O‘zim xoqon, O‘zim sulton, Sen taxti Sulaymonim” deya faxrlanish tuyg‘usini, dunyodan mehr-u muhabbat talab qilgan odamning o‘zida shu tuyg‘ular ustuvor bo‘lishi lozimligi, bugungi va kelgusi avlod bobolar o‘tmishidan saboq chiqarishi va turli hayot sinovlariga tayyor turishligi lozimligini yosh avlodga singdirish.

d) Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning she’riy matnlar bilan ishlash qobiliyatini, og‘zaki va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

III. Darsning turi: Noan’anaviy dars va interfaol usuli

IV. Darsning metodi: Kichik guruhlar bilan ishlash, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar.

V. Darsda foydalanadigan jihozlar: bukletlar, Muhammad Yusufning she’riy to‘plamlari, tarqatma savollar, Muhammad Yusuf portreti, rasmlar, texnik vositalar, mavzuga oid slaydlar, ko‘rgazmali va didaktik materiallar, referatlar.



VI. Darsning rejasi:

- 1) Tashkiliy qism
- 2) O'tgan darsning tahlili
- 3) O'tilgan mavzuni mustahkamlovchi savol va topshiriqlar
- 4) Yangi darsning bayoni
- 5) Yangi mavzuni mustahkamlovchi savol va topshiriqlar
- 6) O'yinlar
- 7) O'quvchilarni baholash, rag'batlantirish
- 8) Darsning yakuniy qismi, uyga vazifa

VII. Darsning borishi: O'tgan darsni so'rab, baholash, mustahkamlab yangi mavzuga bog'lash.

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI.

<p>Fan: Adabiyot. Guruh: . 4i – 15, III kurs. II semester.</p> <p>Mavzu: Muhammad Yusuf hayoti va ijodi.</p> <p>Tayanch so'zlar: she'riyat, shoir hayoti, shoir ijodidagi o'ziga xoslik, nekbin tuyg'ular, Cho'lpon, Usmon Nosir, Shavkat Rahmon, Bobur.</p>
<p>Mavzuning qisqacha ta'rifi:</p> <p>Muhammad Yusufning hayoti, ijodi va she'riyati haqida tushuncha berish</p>
<p>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</p> <p>Metod:Og'zaki bayon qilish, tushuntirish.....</p> <p>Forma:savol – javob, individual ishlash, jamoa bilan ishlash</p> <p>Vositalar: bukletlar, Muhammad Yusuf portreti, rasmlar, videoproyektor, mavzuga oid slaydlar, didaktik materiallar, shoirning kitoblari, referatlar.</p> <p>Nazorat:Og'zaki nazorat, savol – javob, turli interfaol metodlar orqali.</p> <p>Baholash:rag'batlantirish, reyting ball tizimi asosida baholash</p>
<p>Darsning maqsad va vazifalari</p>

<p>Ta'limiy: Muhammad Yusuf ijodi, she'rlarining mazmunini, ularda qo'llangan badiiy vositalarni o'rgatish, she'riyatga oshno etish, shoir ijodiga qiziqtirish.</p> <p>Tarbiyaviy: O'z ozodligini, mustaqilligini qo'lga kiritgan Vatanni qutlar ekan, haqli ravishda xalq nomidan "O'zim xoqon, O'zim sulton, sen taxti Sulaymonim" deya faxrlanish tuyg'usini, dunyodan mehr-u muhabbat talab qilgan odamning o'zida shu tuyg'ular ustuvor bo'lishi lozimligi, bugungi va kelgusi avlod bobolar o'tmishidan saboq chiqarishi va turli hayot sinovlariga tayyor turishligi lozimligini yosh avlod qalbiga singdirish.</p> <p>Rivojlantiruvchi: she'riy matnlar bilan ishlash qobiliyatini, og'zaki va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.</p>	<p>1. Ta'limiy savol: "Vatanim" she'rining mazmun va mohiyatini ochib bering?</p> <p>2. Tarbiyaviy savol: Siz Ona Vatan uchun, uning mehribonligi uchun qanday javob bermoqchisiz?</p> <p>3. Rivojlantiruvchi savol: "Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor..." she'rida shoir nima uchun qatag'on qurboniga aylangan bir qator adiblar nomini tilga oladi?</p>
Kutilayotgan natija	
<p>Dars yakunida o'quvchi biladi (Bilim) Muhammad Yusuf ijodi haqida tushunchalarni, bilimlarni egallashi</p>	<p>Qaysi savollar beriladi:</p> <p>1. Nima uchun shoir o'z she'riga "Ulug'imsan, vatanim" deb nom qo'ygan?</p> <p>2. Sizningcha baxt nima?</p>
<p>Dars yakunida o'quvchi</p>	<p>Qaysi savollar beriladi:</p>

<p>tushunadi(Ko'nikma) Muhammad Yusuf she'riyatini mazmun – mohiyati haqida o'z fikrlarini bildira olishlari kerak.</p>	<p>She'rdan qanday badiiy san'atlar qo'llanilgan?</p>		
<p>Dars yakunida o'quvchi bajara oladi (Malaka) she'riy matnni tahlil qila olishlari kerak.</p>	<p>Qaysi savollar beriladi: Shoir adabiyot maydoniga kirganida unda qanday ruh hukm surardi? Javobingizni bir–ikki adabiy misol bilan isbotlay olasizmi?</p>		
<p>Dars jarayoni va uning bosqichlari</p>			
<p>Ishning nomi</p>	<p>Bajariladigan ish mazmuni</p>	<p>Metod</p>	<p>Vaqt</p>
<p>1 – bosqich: Tashkiliy qism</p>	<p>1. Davomatni aniqlash. 2. Darsga hozirlash.</p>	<p>Savol – javob Klaster</p>	<p>2 daqiqa</p>
<p>2 – bosqich: Ehtiyojlarni aniqlash</p>	<p>Mavzu bo'yicha savol – javob bilan o'quvchilarning shu mavzuga tayyorligi va yana nimalarni bilishlari lozimligi haqida ehtiyojlari aniqlanadi.</p>	<p>O'g'zaki so'rov Debat usuli</p>	<p>8 daqiqa</p>
<p>3 – bosqich: Yangi mavzuning bayoni:</p>	<p>1. Ko'rgazmalilik asosida o'qituvchining mavzu bo'yicha ma'lumoti. 2. Guruhlarda mavzu bo'yicha fikr-</p>	<p>Ko'rgazmali qurol Krossvord Alifbo metodi</p>	<p>10 daqiqa 8 daqiqa</p>

	mulohazalar yuritiladi 3.O'qituvchining darsni xulosalashi	Qo'shimcha ma'lumot asosida	5 daqiqa
4 – bosqich: Mustahkamlash	O'quvchilarga qisqa savollar berish		5 daqiqa
5 – bosqich: Baholash. Dars yakuni.	Savollarga javoblarni tahlil qilish	O'quvchilarni rag'batlantirish.	5 daqiqa
6 – bosqich: (Uyga vazifa)	Shoir Muhammad Yusufning she'rlari mazmunini o'zlashtirish. She'rlaridan yod olib kelish.	Og'zaki topshiriq	2 daqiqa

Dars jarayoni.

I bosqich: (Muhammad Yusuf she'ri Sevara Nazarxonning Vatanim qo'shig'i yangraydi. Ekranda O'zbekiston madh etiladi) Muhammad Yusuf siymosi.Video rolik.

Tashkiliy qism: Salomlashish (she'riy) davomat. Adabiyot nador?
Adabiyot haqida fikrlar aytiladi.

Muvashshah harfiy san'ati asosida adabiyot so'zini ta'riflash.

A – ahillik, adab

D – diyonat, do‘stlik, donolik

A – adolatli

B – barhayot, bilimli

I – insoniylik, intiluvchan, ibrat

Y – yaxshilik, yuksaklik

O – oqibat, olijanoblik, odamiylik

T – totuvlik, tinchlik

Darsning shiori:

“Umr bir surat, uni qnaqa rangga bo‘yash insonning o‘z qo‘lida”

O‘qituvchi:

O‘tar qancha yillar to‘zoni,

Yulduzlar – ko‘z yoshi samoni.

O‘tar inson yaxshi – yomoni,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor,

Toshlarni yig‘latgan dostonlaring bor,

O‘tmishingni o‘ylab og‘riydi jonim,

Ko‘ksing to‘la shahid o‘g‘lonlaring bor.

Bu otashin misralar muallifi kim va qaysi she‘rdan olingan?

O‘quvchi – Ustoz, o‘tganlarni xotirlash savobli ish. Chunki “o‘tganlar ilinji – tiriklar oqibatidir”. Bu otashin misralar “Mehr qolur”, “Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor” she‘rlaridan olingan. Bu misralar sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf qalamiga mansubdir.

2 – O‘quvchi – bundan shuni bilamizki, bugungi mavzu “Mehr qolur” va “Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor” she‘rlarining muallifi Muhammad Yusuf hayoti va ijodi.

O‘qituvchi– aziz o‘quvchilar! Hozir biz birgalikda “Kichik guruhlarda ishlash” usulidan foydalanamiz.

Slayd orqali o‘tilgan mavzu ko‘rsatiladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” usulining maqsad va vazifalari tushunriladi.

Har bir guruh nom tanlaydi.

1 – guruh. “Vatan”

2 – guruh. «O‘zbekiston»

3 – guruh. “Jayron”

4 – guruh. “Bolalik”

5 – guruh. “Rayhon”

Kichik guruhlariga topshiriqlar, tarqatmalar asosida tarqatiladi. Guruhlar tayyorlanish jarayonida Muhammad Yusuf she’ri asosida qo‘shiq qo‘yiladi.

O‘quvchilar she’rlardan yod aytib beradilar.

1 – guruh.

O‘tar qancha yillar to‘zoni,

Yulduzlar – ko‘z yoshi samoni.

O‘tar inson yaxshi – yomoni,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Ushbu so‘zlarning badiiyligini ta’minlagan so‘zlar ostiga chizing.

She’rdan so‘zlar zanjiri hosil qiling.

2 – guruh. “Vatanim” she’rining mazmun va mohiyatini ochib bering. “Siz Ona – Vatan uchun, uning mehribonligi uchun qanday javob bermoqchisiz?” She’rdan parchalar ifodali aytib bering.

Ko‘rgazmalilar asosida adiblar rasmini namoyish etadi.

3 – guruh. “Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor...” she’rida shoir nima uchun qatag‘on qurboniga aylangan bir qator adiblar nomini tilga oladi?

Ko'rgazmalilar asosida adiblar rasmini namoyish etadi.

4 – guruh. “Yurtim ado bo‘lmas armonlaring bor...” she‘rining 5 – bandiga diqqat qiling “Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor” misrasi orqali shoir nima demoqchi?

5 – guruh. Shoir nima uchun “Mehr qolur” she‘rida mehr bilan muhabbatni birga ifoda etayapti? “Vatanga, onaga, opa – singilga yor-u do‘stga mehr muhabbat deganda nimani tushunasiz?”

Guruhlar taqdimoti bo‘ladi. Guruh a‘zolari baholanadi. Guruhlar tomonidan “Bahr-u bayt” o‘yin musobaqasi tashkil etiladi.

O‘qituvchi “Xalq bo‘l, elim” qo‘shig‘idan bir parcha aytish bilan “Bahr-u bayt” o‘yini davom ettiradi.

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim
Qumlar bosib surumasin daryolarim
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang – xalq bo‘l elim!

Guruhlar davom ettiradi.

Men dunyoni nima nima qildim
O‘zing yorug‘ jahonim
O‘zim xoqon
O‘zim sulton
Sen taxti Sulaymoni
Yolg‘izim,
yagonam deymi,
Toppingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim
Mehr – oqibat so‘rab,
Shirin kalom, suhbat so‘rab.

Ko‘zga ko‘rinmay olislab,
Ketayotir turnalar

O‘tilgan mavzuni quyidagi savollar asosida yangi mavzuga bog‘lanadi.
Shoir adabiyot maydoniga kirganda unda qanday ruh hukm surardi?

IX. Yangi mavzu: Muhammad Yusufning Vatan mavzusidagi she‘lari:

1. Ko‘hna tol beshikdan

Boshlangan olam

Senga iddaolar

Qilmay sevaman.

Bir kuni singlim, deb,

Bir kuni onam-

Vatan

Kimligingni

Bilmay sevaman.

Menga yering suyuk,

Osmoning suyuk

Boqsam, teng

To‘rtala

Tomoning suyuk.

Tovonimga kirgan

Tikoning suyuk-

Kaftdan

Zirapchang ham

Yulmay sevaman (“Izhor” she‘ri)

2. Odam bilan ulg‘ayar makon

Dunyolarga doston bo‘ladi.

Erkli elning go‘dagi sulton

Sultoni mard o‘g‘lon bo‘ladi.

Dahri dun hammadan qoladi,

Bizdan ozod Vatan qoladi. (“Shior” she’ri)

Savol va topshiriqlar ustida ishlash.

Yangi dars: “Shaxsga yo‘naltirilgan” pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladi.

She’ning badiiy san’at turlarini ayting. She’rda qanday she’riy san’at turlari qo‘llanilgan? Badiiy san’at jozibasini toping.

She’rda nima uchun aynan shu badiiy san’at turlari qo‘llanilgan?

(Slayd orqali badiiy she’riy san’at turlari beriladi)

1. Ko‘chim
2. Tashbeh
3. O‘xshatish
4. Metanimya
5. Mubolag‘a
6. Xitob
7. Murabba

O‘quvchilar qo‘shimcha adabiyotlar orqali o‘z fikrlarini shakllantirib boradi.

1. Muhammad Yusuf hayoti va ijodining e’tiboriga loyiq jihati to‘g‘risida ma’lumot bering.

2. Muhammad Yusufning istiqlol yillaridagi ijodi to‘g‘risida mulohaza yuritining. Uning she’rlari asosida aytiladigan qaysi qo‘shiqlarni bilasiz? (ekranda qo‘shiqchilarning surati va bitta qo‘shig‘i beriladi).

3. Biz baxtli bo‘lamiz” she’rida lirik qahramon o‘z suyuklisiga qarata “Rayhon hidlaringni yo‘llarimga sep” deydi. Shu misrada nazarda tutilgan hayotiy holatni so‘zlab bering.

4. Menga bir tabassum

“Hadya et, ey yor,

Nur tomsin lablaring sohillaridan” degan she’riy parchada qanday badiiy san’at qo‘llangan?

O‘quvchilar fikri to‘ldiriladi va izohlanadi.

Muhammad Yusuf she'rlarining nomi asosida "Xotira mashqi" o'tkaziladi.

Masalan: "Tavallo", "Erka kiyik", "Do'ppi", "O'zbekiston", "Onamga", "Vatanim", "Biz baxtli bo'lamiz", "Yurtim ado bo'lmas".

Magnit doskasiga shoir she'rlaridan namunalar qo'yiladi. **"O'rniga qo'y o'yini" o'tkaziladi.**

Demak, Muhammad Yusuf har qanday maqtov va sharafiga munosib deb xulosa qilamiz.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov 2013 yil 27 – dekabrda "O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori shoirning adabiyotimizga, ma'naviyatimizga qilgan xizmatlarining qutlug' e'tirofi bo'ldi.

X. Mustahkamlash.

1. Nima uchun she'rga "Biz baxtli bo'lamiz" deb nom qo'ygan?
2. "Siz uchun baxt nima?"

Biz shunday Jannat makon Vatanda yashayotganimizdan faxrlanamiz va g'ururlanamiz. Biz vatanning baxtli farzandlarimiz. Ota – onamning borligi baxt, yurtimizning tinchligi baxt imkoniyatlari keng mamlakatda yashayotganimizni o'zi baxt.

Rag'batlantirish. Nominatsiya.

1. "Eng faol o'quvchi"
2. "Eng nutqi ravon o'quvchi"
3. "She'rlarni ifodali aytgan o'quvchi"

Jurnalga va kundaliklarga baho qo'yiladi.

XI. Darsning yakuniy qismi.

Uyga vazifa. Shoir Muhammad Yusufning she'rlar mazmunini o'zlashtirish. She'rlardan yod olib kelish.

"Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston!" qo'shig'i yangraydi.

E'tiboringiz uchun tashakkur!

“Alifbo” metodi.

Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni alifbo tartibida joylashtirib chiqiladi. Bu guruhlar o'rtasida xuddi bahr-u bayt kabi bo'lib o'tadi.

A - Andijonda tug'ilgan.

B – Bobur va Shavkat Rahmon kabi 47 yil umr ko'rgan.

D – “Daryo” nomli she'r yozgan

E – “Eslamasang ham meni” she'rida armonli muhabbatni kuylagan.

F – Fanlardan matematika fanini yomon ko'rishini she'rlarida aytib o'tgan.

“Audiomatn - so'z tiklash”

Bu metodda o'quvchilarga Muhammad Yusuf qalamiga mansub she'r asosida qo'shiq qilingan audio eshittiriladi. Va ushbu she'rning ayrim so'zlari tushib qolgan varianti tarqatiladi. O'quvchilar audioni eshitib bo'lib, nuqtalarning o'rniga kerakli so'zlarni yozib chiqadilar.

Men dunyoni nima qildim,

O'zing yorug' _____,

O'zim hoqon

_____ sulton

Sen taxti Sulaymonim,

Yolg'izim,

_____ deymu,

Toppingan koshonam deymu,

O'zing mening _____

Ulug'imsan, Vatanim...

Shodon kunim _____ otgan sen,

Chechak otgan izimga,

Nolon kunim yupatgan sen,

Yuzing bosib yuzimga.

_____ deymi,

Onam deymi,
Hamdard-u _____ deymu,
Oftobdan ham o‘zing mehri -
Ilig‘imsan, Vatanim...

“Taassurot insho”

Ushbu metodda o‘quvchilarga Muhammad Yusufning ma’lum bir she’ri asosida olgan taassurotlarini kichik insho shaklida bayon qiladilar. Bu metod juda samarali bo‘lib o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirishda, dunyoqarashini kengaytirishda ahamiyati juda katta.

“Qorachig‘da porlagan o‘sha”

Yaratgan egam insonlarni yaratibdiki, u bilan birgalikda mehr-muhabbat ham yonma-yon yashab kelmoqda. Mehr! Shu birgina so‘zda olam-olam ma’no yashirin. Dunyoda biror kim yo‘qki mehrsiz yashay olsa. Hatto odamlarning eng telbasi ham kimningdir mehrini kutib yashaydi. Mehr bilan olam charog‘on ko‘ngillar ravshan, yurakda umid, ko‘zlarda sevinch....

XULOSA

Adabiyotning inson hayotida tutgan o‘rnini tushuntirish uchun birgina Abdulla Qahhorning “Adabiyot atomdan kuchli” deb aytgan mashhur iborasini eslash kifoya. Adabiyot - millat ko‘zgusi, adabiyot - so‘z san’ati, adabiyot - ko‘ngil oynasi.

Adabiyot o‘qitishni tashkil etish adabiy ta’lim negizida turadi. O‘quvchilarning adabiyot fanidan egallagan bilimlari ularning odob-axloqida, qadriyatlarga hurmat bilan qarashida yaqqol ko‘zga tashlanadi. U o‘quv predmeti sifatida o‘quvchilar nutqining takomilida, bolalarning kitobxonlik madaniyatining yuksalishida, kitobning to‘liq badiiy idrok etish qobiliyatining shakllanishi va rivojida beqiyos ahamiyatga ega.

Adabiyot faqat pedagogik maqsadlarga xizmat qilib qolmasdan, o‘quvchilarga bilim berishi, ya’ni ko‘p asrli o‘zbek adabiyoti tarixi va hozirgi adabiy jarayondagi yetakchi ijodkorlar va ularning adabiy merosi haqida tassavvur hosil qildirishi lozim. Umumta’lim maktablari va maxsus o‘rta ta’lim maskanlarida olgan bilimlari o‘laroq o‘quvchilar adabiyot va uning tub negizini anglashi, qadimdan to shu kungacha bo‘lgan ma’naviy obidalar va yozuvchi hayoti va ijodi borasida ma’lum bilimlarga ega bo‘lmog‘i lozim.

Har qanday ongli va sinchkov kitobxon asarni varaqlab, badiiyati bilan tanishish jarayonida unga yozuvchining “men”i, tafakkur dunyosi qisman yoki butunlay ko‘chganligini payqaydi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov: “Yozuvchining qahramonlarida uning xarakteri, qalb dunyosi, ruhiyati aks etadi va harakat qiladi”, – deydi. Adabiyot tarixida va ayni bugungi kunda ham hech bir asar, ustoz aytganidek, adibning dunyosidan, xarakteridan, orzu-umidlaridan xoli tarzda yaratilgan va yaratilmoqda deb ayta olmaymiz. Yuqorida sanab o‘tganlarimiz: adib dunyoqarashi, orzu-umidlari, erisha olmaganlari, ya’ni armonlari esa o‘z-o‘zidan u yashagan davr hayoti bilan bog‘liq. Ijodkor ba’zan ona yurt, tabiat, mamlakatni boshqarib turgan hukmdor-u amaldorlar, oddiy xalq vakillari kabilarni madh etib, ko‘klarga ko‘taradi, ba’zan ... buning butunlay aksini

ko‘rishimiz mumkin. Bu holat esa yozuvchining har bir ijod namunasida u yashagan davr ruhi o‘z aksini topishi, ijodkor dunyosi asarga ko‘chishining isbotidir. Shunday asarlar borki, ularning asosida adibning hayoti davomida ko‘rgan-kechirganlarining aksi yotadi. Bu asarlar mashhurligi, o‘qishliligi, kitobxonni o‘ziga chorlab, sehrlay olishining bosh sababi ham, aslida, shundan emasmikin?

Ma’lumki, maktab adabiy ta’limida 5-sinfdan boshlab Adabiyot fan sifatida mustaqil o‘qitila boshlanadi. Bungacha o‘quvchilarda “O‘qish” kitobidagi asarlar mutolaasi va ularning tahlili bilan tanishish orqali badiiy asarni o‘qish va uqish malakalari shakllantirilgan bo‘ladi. O‘quvchilarning yoshi ortishi bilan ulardagi hayotni anglash, uni tushunish, yashashdan maqsad kabilarni ham anglay boshlashlarini guvohi bo‘lamiz. Bu sohada esa o‘quvchiga eng yaqin va haqiqiy do‘st, maslakdosh – badiiy adabiyotdir. Zero, adabiyot – hayotning inikosi. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov: **“Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir, yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari, deb ta’riflanishi bejiz emas, albatta”**²⁵ – deb ta’kidlagan edilar. Badiiy adabiyot ma’naviyatni oziqlantiruvchi manba sifatida o‘quvchi-yoshlar dunyoqarashiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Adib voqealarni hayotdan, insonlarning o‘zidan olib, unga badiiylik, obrazlilik “libos”ini kiydiradi, shu holatda yana kitobxonga qaytarishi hech kimga sir emas. Katta hayot zinalarini birma-bir bosib yuqorilayotgan bola uchun, u yashayotgan yurt, mahalla, oila, maktab, do‘stlar davrasidagi muhit kelajakda qanday inson bo‘lishini ta’minlaydi. Biz, adabiyot o‘qituvchilari, o‘z darslarimizni bolaning badiiy tafakkurini, mustaqil fikr yuritish va hayotga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladigan darajaga yetkaza olsak, o‘zi o‘qiyotgan har qanday matnga ijodkorona va tanqidiy nazar bilan qaray oladigan o‘quvchini shakllantirsak, oldimizga qo‘ygan maqsadga bir qadar erishgan bo‘lamiz. Xususan, 5-sinfda yozuvchi tarjimayi holi

²⁵Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T., Ma’naviyat, 2008. 134-bet.

va darslikda berilgan asarining o'zaro chambarchas bog'liqlikda o'qitilishi bu darslarning jonli, qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

O'quvchilarga yozuvchi hayoti va ijodini o'qitishda, faqatgina darsliklarda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish yanada samarali bo'ladi. Shu bilan birga, yozuvchining avtobiografiyasi va tarjimai holi bilan tanishtirgan holda tushuntirish esa, ta'lim samaradorligini yuqori darajada ko'tarilishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda ana shu samaradorlikni ko'rsatib berishga imkon qadar harakat qildik. Birinchi bobda yozuvchi hayoti va ijodini o'rganishda biografik metodning ilmiy-nazariy va metodik asoslari haqidagi ma'lumotlar keng va batafsil yoritib berilgan. Shu bilan birga, yozuvchi biografiasining adabiy asarga ko'chishi namumalar orqali yoritib berishga harakat qilingan.

Ikkinchi bobda yozuvchi ijodini o'rganishda biografik metodning ifodalanishi nasr va nazm tipidagi asarlar misolida ochib berishga harakat qilingan., jumladan mazkur bobda biografik metodning tahlil namunalari sifatida hikoyachilik janrining yorqin vakili Abdulla Qahhor va o'z she'rlari bilan xalqning qalbidan mustahkam o'rin egallagan zabardast shoir Muhammad Yusufklar ijodi misolida ko'rsatib berilgan.

Uchinchi bobimiz ishning amaliyotga tatbiqi deb nomlanib, bunda tajriba-sinov natijalari va ochiq dars ishlanmasi keltirib o'tilgan. Bob yakunida xulosalangan. Ishning yakunida adabiyotlar ro'yxati va o'zbekch-inglizcha so'zlar lug'ati ilova qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T., O'zbekiston, 2009.
3. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor- ma'naviyatga e'tibor. – T., O'zbekiston, 2009.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., O'zbekiston, 2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T., O'zbekiston, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., O'zbekiston, 2017.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni. //Xalq so'zi gazetasi, 2017- yil 8-fevral.
9. Ўзбекистон халқ шоири М.Юсуф таваллудининг 60 йиллигини муносиб нишонлаш тўғрисида ПҚ -2012- сонли Қарор //Республикамиз Президенти И.А Каримов 2013-йилнинг 27 декабрида имзолаган.
10. Абдулла Қаҳҳор. Зил-зила. - Т., Шарк юлдузи, 1987.
11. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 5 Жилдлик. 1-жилд. - Т., Адабиёт ва санъат, 1987.
12. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 5 Жилдлик. 2-жилд. - Т., Адабиёт ва санъат, 1987.
13. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 5 Жилдлик. 3-жилд. - Т., Адабиёт ва санъат, 1988.
14. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 5 Жилдлик. 4-жилд. - Т., Адабиёт ва санъат, 1989.

15. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 5 Жилдлик. 5-жилд. - Т.б Адабиёт ва санъат, 1971.
16. Azizxodjayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T., Ma'naviyat, 2005.
17. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy- nazariy asoslari. – T., Fan, 2007.
18. Fayzullayeva D.M., G'aniyeva M.A., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami. Met.qo'll. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida innovatsion ta'lim texnologiyalari seriyasidan – T., TDIU, 2013.
19. Teshaboyev B. Interfaol usullar. // Xalq ta'limi jurnali. – T., № 3. 2008-yil.
20. Муҳаммад Юсуф. Таниш тераклар. - Т., 1985
21. Муҳаммад Юсуф. Булбулга бир гапим бор. - Т., 1987.
22. Муҳаммад Юсуф. Илтижо. - Т., 1988.
23. Муҳаммад Юсуф. Уйқудаги қиз. - Т., 1989.
24. Муҳаммад Юсуф. Ҳалима энам аллалари. – Т., 1989.
25. Муҳаммад Юсуф. Ишқ кемаси. - Т., 1990.
26. Муҳаммад Юсуф. Ёлғончи ёр. - Т., 1993.
27. Муҳаммад Юсуф. Эрка кийик. - Т., 1995.
28. Муҳаммад Юсуф. Осмонимга олиб кетаман. - Т., 1998.
29. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. Хотиралар, шеърлар, дoston. -Т., Шарк, 2002.
30. Муҳаммад Юсуф. Биз бахтли бўламиз. - Т., Ниҳол, 2011.
31. Муҳаммад Юсуф. Улуғимсан, ватаним. - Т., Ўзбекистон, 2010.
32. Муҳаммад Юсуф сабоқлари. – Т., Тўпловчи ва ҳаммуаллиф Шукур Қурбон. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2012.
33. Niyozmetova R. H. Uzluksiz ta'lim tizimida adabiyotni o'rganish. – T., Fan, 2007.
34. Ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar. Xalq ta'limi markazi. O'quv qo'llanma. – T., 2014.

35. Teshaboyev B Ta'limda interfaol usullardan foydalanish. // Boshlang'ich ta'lim jurnali. № 2. 2009.
36. Ta'lim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. – T., -2007.
37. To'xliyev B, Abdurahmonova B. Adabiyot. Majmua. Akademik litseyning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun. - T., Bayoz. 2014.
38. Umumta'lim maktablari adabiyot darsliklari.

Elektron ta'lim resurslari:

39. www.ziyonet.uz
40. www.google.uz
41. www.pedagog.uz
42. www.istedod.uz
43. [www. Bimm. Uz](http://www.Bimm.Uz)
44. [www. Ziyonet. Uz.](http://www.Ziyonet.Uz)
45. www.edu.uz
46. [Htt://www.ziyouz. uz](http://www.ziyouz.uz)
47. [Htt://uzedu.uz](http://uzedu.uz)
48. [Htt:// www. Kitob. Uz.](http://www.Kitob.Uz)

Mavzuga oid o'zbekcha – inglizcha lug'at

adabiyot – literature

adabiyotshunoslik- literary criticism
adabiy – literary
portret – portrait
biografiya – biography
biografik metod – biographical method
yozuvchi – writer
shoir - poet
roman – novel
tanlangan asarlar - select works
she'riyat – poetry
shoirona – poetic
metod – method
she'riy nutq – poetic speech
nazariya – theory
olim – scientist
ruhiy – mental
janr – genre
lirika – lyrics
falsafiy lirik – philosophical and lyrical
manba – source
adabiy til – literary language
badiiy uslub – artistic style
badiiy matn - artistic text
genetic, shajaraviy – genetic
dialog – dialogic
kinoya – the irony
kontrast – contrastive
ko'chim – trails
majoz – allegory

mazmun – content
 mantiqiy – logical
 matn – text
 matniy ma’no – contextual meaning
 mezon – criteria
 struktura – structure
 obyekt - object
 subyekt-subject
 mavzu -theme
 emotsional, hissiy – emotionality
 so‘z o‘yini- a play on words
 badiiy – artistic
 bayt - distich
 mubolag‘a -exaggeration
 she’riy – poetic